

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ
ВАЗИРЛИГИ**

Навоий давлат педагогика институти

Тарих факультети

Умумий тарих кафедраси

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

**Mavzu: “O’quvchilarda tarixiy bilimlarni
shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy
qismlari (Jahon tarixi darslari misolida)”**

Bajardi: Tarix fakulteti 4 – kurs

“B” guruhi talabasi

Qodirova Gulhayo

Ilmiy rahbar: kat.o’q. S. Hamroyeva

Навоий - 2013

**Mavzu: O'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish
jarayonining asosiy tarkibiy qismlari.
(“Jahon tarixi” darslari misolida)**

REJA:

I. Kirish.

II. Asosiy qism.

**I BOB. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga
tarixiy bilimlarni shakllantirish usullari va ahamiyati.**

I.1. 6 – 7 – sinflarda o'qituvchining o'quvchilarni yangi o'quv materialini o'zlashtirishga tayyorlashi.

I.2. Yangi o'quv materialini o'rgatishning zamonaviy usullari.

I.3. Tarix darslari jarayonida o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash va o'quvchiga yondashish bo'yicha texnologiyalar.

**II BOB. “Jahon tarixi” darslarida o'quvchilarning
o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash.**

II.1. O'quvchilarning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishga qo'yilgan talablar.

II.2. O'rganilgan materialni takrorlash va umumlashtirish.

II.3. O'quvchilar bilimini tekshirish va hisobga olish.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Tadqiqot mavzusining dolzarbliji: Umumiy o’rta ta’lim muassasalarini o’quvchilarining tarix darslarida oladigan tarixiy bilimlarini shakllantirish jarayoni o’zaro bog’langan bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo’lib, hozirgi kunda tarix darslari jarayonida o’quvchilarning tarixiy bilimlarini shakllantirishda, ularda tarix faniga bo’lgan qiziqishni orttirishda bunday tarkibiy qismlardan foydalanish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shu bois bugungi zamonaviy tarix fani o’qituvchisi bu jarayonlarni bevosita o’zlashtirib olishi zarur. Bitiruv malakaviy ishizmizning bajarilishida “Jahon tarixi” darslari misolida o’quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari va ularni o’qituvchi tomonidan bajarilishi xususida izlanish olib borib, uni talqin etishga harakat qilamiz.

Mavzuning dolzarbligini ochib berish maqsadida tarkibiy qismlarning asosiyлари ustida to’xtalamiz. Bu tarkibiy qismlarning eng asosiyлари quyidagilardir:

- a). O’quvchilarni yangi materialni o’rganishga tayyorlash va lozim bo’lganda undan foydalanish;
- b). Sinfda olgan bilimlari va hosil qilgan malakalarini yanada mustahkamlash uchun o’quvchilarning uyga berilgan vazifani bajarishlari;
- v). Keyingi darslarda o’tilganchani so’rash va takrorlash vaqtida o’quvchilarning bilimini to’ldirish va chiqurlashtirish;
- c). Bilim, ko’nikma va malakalarini o’stirish.

Tarix fanidan ta’lim – tarbiya berishning asosiy shakli dars bo’lgani uchun, biz dars davomidagi, shuningdek, uy vazifasini bajarish jarayonidagi ta’limning aniq tarkibiy qismlarini bitiruv malakaviy ishimizda tahlil qilib berishni zarur deb hisoblaymiz.

Tarix kursi oldiga qo’yilgan ta’lim – tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o’qitiladigan tarix kursining tutgan o’rni, uning ta’lim – tarbiyaviy vazifalari, har bir bo’lim va

bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olingandan keyingina o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lim – tarbiyaviy vazifalarini oldindan to'g'ri va aniq belgilab ola bilishiga bog'liqdir. Bu ham, o'z navbatida o'qituvchining darsning ta'lim – tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi nazariy bilim va malakalarning darajasiga bo'liqdir.

Dars – o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarining doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga oz'i belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma – xil metodlardan foydalanadi.

Dars – o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli, ammo u ta'limning boshqa shakllarini: ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlar, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'quvchilarda tarixga doir bilim va malakalarni vujudga keltirish jarayonining hamma tarkibiy qismlarini bir darsning o'zida amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ishda o'quvchilarining mustaqil mutolaasi, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay turib kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero, bugunning qadru – qimmati, mohiyati va salmog'i kechagi kun taqozosi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmagunicha hech bir jamiyat ilgarilib rivojlanmaydi. Jamiyatning ilgarilab rivojlanishi uchun esa o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti uchun bor bilim va salohiyatini ishga sola oladigan komil shaxs tarbiyasi asosiy o'rinda turadi. Bunday insonlarni tarbiyalash o'z navbatida tarix darslarida amalga oshiriladi. O'qituvchilar tomonidan tarix

darslari davomida tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini to’la anglab olish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o’quvchilar ongiga tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini umumiy o’rta ta’lim maktablarining “Jahon tarixi” darslari mavzulari misolida oolib berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot mavzusining maqsad va vazifalari: Jahon tarixi fani insoniyat taraqqiyoti haqida to’la va batafsil tasavvur, bilim hamda tushunchalar berib, yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo’lib yetishishida muhim o’rin tutadi. Zotan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining asosiy sohasidir.

Jahon xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya’ni tarixda bo’lib o’tgan voqealardan, hodisalardan, turli shaxslar hayotidan, iqtisodiy taraqqiyotidan, yangi farovon jamiyat qurish yo’lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

Tarix fani bugungi kunda har qachongidan ham e’tiborga molikdir. Mamlakatimiz taqdirida nihoyatda muhim bo’lgan ushbu davrda, har bir soj vijdonli, vatanparvar shaxs, unda faol ishtirok etishi, mavjud muammolarning kalitini, yechimini axtarishi lozim. Bu kalit – jahon xalqlarining ko’p asrlik tarixidir. Tarix sahnasida inson o’zining fazilatlari va nuqsonlari bilan hamisha asosiy omil bo’lib kelgan. Shu sababdan o’tmishni jonli, doimiy rivojlanishda bo’lgan mujassam birlik – ya’ni insoniyat tarixini bilmay turib biz bugungi kunni tushunishimiz, bo’layotgan jarayonlarni anglab yetishimiz qiyin bo’ladi.

Jahon xalqlarining o’tmish tarixini o’rganganimizda, bizga uzoq vaqt singdirib kelingan g’oya, tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan baholash yoki noo’rin bo’rttirib ko’rsatishlardan saqlanmog’imiz zarur. Sababi qadimgi dunyo va o’rta asrlar davrida siyosiy vaziyat, mafkura doirasi o’zgacha bo’lganligi hammamizga ma’lum. Qolaversa, davr mahsuli: tarixiy shaxslar, oddiy fuqarolardan tortib qirollargacha hamma – hammalarining o’z g’oyalari, tushunchalari, maqsad va intilishlari bo’lganligi tabiiy. O’tmishdagi har bir

jamiyat o'zidan avvalgisiga nisbatan ilg'orroq bo'lib, unda yashagan barcha insonlar hamisha yaxshilikka, ezgu niyatlar sari intilganlar. Tarixiy taraqqiyot insoniyatning asrlar osha to'plangan bilimlarini, ongi, maqsadlari, talablari ko'payib borishi bilan uzviy bog'liqdir. Biz o'rta asrlar tarixini chuqur o'rganish borasida o'zimiz uchun ushbu qonuniyatlarni kashf etamiz. Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay turib kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero, bugunning qadru – qimmati, mohiyati va salmog'i kechagi kun tarozisi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmaguncha hech bir jamiyat ilgarilab rivojlanmaydi.

Mavzuning o'rganilish darjasи: Biz tanlagan "O'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari" ("Jahon tarixi" darslari misolida) nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasiga e'tibor qaratsak, o'quvchilarda tarixiy bilimlarni tarix fanlarini o'qitish jarayonida yoki zamonaviy darslarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalarini yoritib beruvchi juda ko'plab metodik adabiyotlarni uchratish mumkin. Ayniqsa, mustaqillik yillarida bu narsaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida ta'lim sohasida innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, o'quvchi yoshlarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, tarixiy bilimlarini mustahkamlash va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish maqsadida olib borilayotgan vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun, albatta metodik adabiyotlarga murojaat qilinadi. Tarix fanlarini o'qitish bo'yicha bugungi kunda turli metodik adabiyotlardan foydalanish imkoniyati kengayib bormoqda. Yaratilayotgan adabiyotlarning barchasi ta'lim sifatini zamonaviylashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, mahalliy adabiyotlar bilan birga xorijiy davlatlar mualliflari tomonidan yaratilayotgan metodik adabiyotlarda va metodik jurnallarda e'lon qilinayotgan ilmiy maqolalarda umumiyl o'rta ta'lim tizimida darslarni tashkil qilishning zamonaviy usullari xususida fikrlar yuritiladi.

I. Xorijiy adabiyotlarda ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida ko’plab metodik adabiyotlar ishlangan bo’lib, biz ulardan quyidagilarini o’rgandik.

И. Сергеев. “Основы педагогической деятельности”, В. Кузнецов. “Психолого – педагогические условия формирования личности учителя”, Селевко Г.К. “Современные образовательные технологии”, Кушнир А.М. “Методический плюрализм”, Кларин М.В. “Педагогическая технология в учебном процессе”. Анализ зарубежного опыта, Бершадский М.Е., “В каких значениях используется понятие «технология» в педагогической литературе?”, Беспалько В.П. “Слагаемые педагогической технологии”, Боголюбов В.И. “Эволюция педагогических технологий”¹ kabi metodik adabiyotlarni tahlil qilish mumkin.

II. Milliy metodikada yaratilgan adabiyotlar:

Azuzxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, Avliyoqulov N. “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari”, J.G.Yo’ldoshev. Yangi pedagogik texnologiyalar yo’nalishlari, muammolari, yechimlari”, J.G.Yo’ldoshev. S.A.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari”, R. Ishmuxammedov. “Bolalarni tarbiyalash va sog’lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya”, R. Ishmuxammedov. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari”, N. Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar”, U.Tolipov. M.Usmonboyeva. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiqy asoslari”, R. Ishmuxammedov. A.Abduqodirov. A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar”, Farberman B.L, Musina

¹ 1. И. Сергеев. Основы педагогической деятельности. Учебное пособие. СПб. Питер. 2004.

2. В. Кузнецов. Психолого – педагогические условия формирования личности учителя: Пособие для преподавателей технологического лицея. М. 1998.

3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. М.: Народное образование, 1998.

4. Кушнир А.М. Методический плюрализм. //Школьные технологии.- 2004. № 4.

5. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта.- // М.: Знание, 1989 / Новое в жизни, науке, технике. Сер. «Педагогика и психология», № 6.

6. Бершадский М.Е., В каких значениях используется понятие «технология» в педагогической литературе? //Школьные технологии- 2002.- № 1.

7. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.

8. Боголюбов В.И. Эволюция педагогических технологий //Школьные технологии - 2004. - № 4.

R.G, Jumaboyeva F.A. “Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari”, Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshqalar. “Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari”, Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari, T. Toshpo’latov, Ya. G’afforov. “Tarix o’qitish metodikasi”, Sagdiyev A. Fuzailova G. Hasanova M. “Tarix o’qitish metodikasi”, Egamberdiyeva N. “Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasining qadriyatli bosqichini loyihalash va amalgam oshirish”, Tolipov U.Q. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”, Зиямухамедова С, Зиямухемедов Б. “Новая педагогическая технология”, Akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filiologiya yo’nalishidagi tarmoq ta’lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o’quv dasturlari.²

Bugun texnika vositalari rivojlanib borayotgan bir davrda internet saytlarida ham darslarni zamonaviy tashkil etish maqsadida turli ma’lumotlarga ega bo’lish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTERNET.PED
6. www.pish.ru
7. lesson-history.narod.ru
8. www.history.yar.ru/kafmetod.html
9. www.chtivo.ru/chtivo=3&bkid=34044.htm

² 1. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari. O’quv-uslubiy qo’llanma. T., 2002.

2. Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshqalar. Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Treninglar uchun qo’llanma. T., UMKXTRI, 2002.

3. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O’quv metodik qo’llanma. T., 2003.

4. T. Toshpo’latov, Ya. G’afforov. Tarix o’qitish metodikasi. T. “Universitet”. 2002.

5. Sagdiyev A. Fuzailova G. Hasanova M. Tarix o’qitish metodikasi. – T. 2008.

6. Egamberdiyeva N. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasining qadriyatli bosqichini loyihalash va amalgam oshirish – T.:TDPU. 2010.

7. 16.Tolipov U.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – T.:2008

8. Зиямухамедова С, Зиямухемедов Б. Новая педагогическая технология. - Т.: Абу Али ибн Сино. 2002.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi shundaki, unda umumiy o’rta ta’lim mакtablarida “Jahon tartixi” darslari misolida o’quvchilarda tarixiy bilimlarni uzlusiz holatda shakllantirib borishning innovatsion texnologiyalarini ko’rsatib berishni rejalashtirdik. Chunki, fanda jahon tarixi insoniyat taraqqiyoti haqida to’la va bat afsil tasavvur, bilim hamda tushunchalar berib yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo’lib yetishishida muhim o’rin tutadi. Zотan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustivor sohasidir. Jahon xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya’ni tarixda bo’lib o’tgan voqealardan, hodisalardan, turli shaxslar hayotidan, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan, yangi va farovon jamiyat qurish yo’lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

Biz insoniyatning o’tmish tarixini o’rganganimizda uni sobiq sovetlar davrida hukmron bo’lgan g’oya, ya’ni tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan talqin etishlardan yoki noo’rin bo’rttirib ko’rsatishlardan saqlanishimiz zarur. Chunki, **“Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”**³. Binobarin, haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so’z baxsh etuvchi, kunpayakun sultanatlarni qayta yaratuvchi, o’tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko’z o’ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo’jizadir. Uning ma’naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo’lamiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag’batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe’l – atvorlar dunyosiga oshno bo’lamiz.

Tarixni insoniyat taraqqiyotining dardu quvonchlari, g’alabalaru mag’lubiyatlari, yaratuvchilik qudratiyu barbod etuvchi qora kuchlari, jasorat va xiyonat, oq va qoraning shiddatli to’qnashuvlari haqida hikoyalari bitilgan kundalik daftar deyish mumkin. Shubhasiz, **“Har qanday sivilizatsiya ko’pdan – ko’p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining**

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. “Sharq” nashriyoti, 1998 yil, 4 – bet.

mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy bo'lib, qolaveradi, uning madaniyati abadiy yashaydi".⁴ Umuman, to'g'ri anglab yetilgan, chuqur idrok etilgan tarix ulkan ma'naviy kuchga aylanib, buyuk kelajakni yaratishda omil bo'ladi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egalladi. Davlatimiz buyuk kelajakni ta'minlashga xizmat qiladigan jamiyat qurishning murakkab yo'llini bosib o'tmog'i lozim. Bu siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, rivojlangan iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim tizimiga ega bo`lgan chinakam demokratik jamiyat qurish yo`lidir. Mazkur yo`lning muvaffaqiyati jahon hamjamiyati bilan, o`zaro manfaatli amaliy va do'stona munosabatlar asosida yer kurrasidagi barcha xalqlar va davlatlar bilan hamkorlikka bog`liq. Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil. Unda turli madaniyatlar yonma – yon yashaydi va bir – biriga ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kirishish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqelikning muammolarini chuqur bilish va bu bilimdan umum manfaati yo'lida foydalanish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikta tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dunyo mamlakatlari bilan tinch – totuv yashash va hamkorlik qilishning ahamiyati xususida to'xtalib, shunday yozadi: "**Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtarda jahonda yuz bergen, dunyoning jug'rofiy – siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim".⁵**

Insoniyat XX asrda ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda ulkan qadamlar tashladi. Asrmizning 20 – yillarida boshlangan ilmiy – texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq" nashriyoti. 1998 yil, 21 – bet.

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston". 1998 yil, 417 – bet.

Inson tarixda birinchi marta ochiq fazoga chiqdi va Oyga qadam bosdi. Atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy televideniye, eng yangi harakt vositalari xalqlarning o'zaro munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Shu bilan birga hali hal etilmagan bir talay muammolar borki, ularni bartaraf etish uchun insoniyat o'z kuchlarini birlashtirishi zarur. Ochlik va faqirlik, atrof – muhitning ifloslanishi, og'ir yuqumli kasalliklarga qarshi va hayot darajasini yuksaltirish, inson huquqlari uchun kurash, xalqaro huquq mezonlarini qaror toptirish shular jumlasidandir.

Xullas, bugungi mustaqil O'zbekistonda ta'limni isloh qilishning amalga oshirilishi jarayonida yoshlarni boshqa davlatlarning, millatlarning, xalqlarning tarixini, madaniyatini, ma'naviyatini, o'rganishi orqali milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda “Jahon tarixi” fanining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini davlatimiz eng birinchi muhim vazifa qilib qo'ydiki, buni yurtboshimiz ham o'z ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlab o'tdi. Chunonchi, **“Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi”.**⁶

Tadqiqot ishining predmeti va ob'yekti: O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, uzlusiz ta'lim tizimida oily ta'limda olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llash maqsadida malakaviy amaliyot jarayoni amalga oshiriladi. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning ob'yekti sifatida institutda olgan nazariy bilimlarimizni umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6 – 7 – sinflarning “Jahon tarixi” darslari misolida

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston Reaspublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'rzasidan. “O'zbekiston ovozi” gazetasi. 1995 yil, fevral.

o'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirishning tarkibiy qismlarini izohlashga harakat qilamiz. Pedagogik malakaviy amaliyot jarayoni olib borilgan makatb tadqiqot ishimizning ob'yekti sifatida qayd etiladi. Maktabda "Jahon tarixi" dan bir necha soat darslar o'tish jarayonida bitiruv malakaviy ishimizning mavzusiga yondashgan holda o'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirishning tarkibiy qismlarini o'rganishga intildik va tajribalarimizni mazkur ishda ochib berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy ahamiyati va yakuniy xulosalari yosh avlodga tarix fanining qirralarini ochishda, ularni jahon xalqlarining tarixiga, madaniyatiga bo'lgan qiziqishini orttirishda, ta'lif tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash jarayoni, o'quvchi yoshlarning xotirasini mustahkamlash, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishga qo'yilgan talablarni amalga oshirishlariga o'rgatish, darslar jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda faol qatnashish ko'nikmalarini hosil qilish, o'rganilgan tarixiy materialni takrorlash kabi jihatlarni o'rgatish orqali o'quvchilarning tarixiy bilimlarini shakllantirib borishga erishilishining ahamiyayıtı ochib beriladi.

I BOB. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'quvchilarga tarixiy bilimlarni shakllantirish usullari va ahamiyati.

I.I. 6 – 7 – sunflarda o'qituvchining o'quvchilarni yangi o'quv materialini o'zlashtirishga tayyorlashi.

O'quvchilarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash – darsda va darsdan keyin uyga berilgan topshiriqni bajarish vaqtida ularning diqqat – e'tiborini va bilim olishdagi faolligini ishga solishdan, o'quvchilarni o'rganishlari lozim bo'lgan masalalarga qiziqtirishdan, ular oldiga qurblari yetadigan o'quv vazifalarini qo'yishdan iborat. Yangi materialni o'rganishga o'quvchilarni uyga beriladigan topshiriq orqali ham tayyorlash mumkin.

O'qituvchi yangi materialni o'rgatishga kirishar ekan, uni ilgari o'tilgan material bilan bog'laydi, o'quvchilarning yangi ma'lumotlarga taqqoslab ko'rishlari va shu yo'l bilan umumiy xulosalar chiqarishlari uchun zarur bo'lgan mavjud bilimlarini ishga soladi.

Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 6 – 7 – sinflarida o'qitiladigan "Jahon tarixi" darsliklarida har bir mavzuga oid bir qancha savollar berilgan, bu savollar o'quvchilarning yangi material mazmunini yaxshiroq o'zlashtirish uchun kerakli eski materilani esga tushirishlariga yordam beradi hamda ularni ilgari o'rganilgan dalillar bilan endi o'rganiladigan dalillar o'rtasidagi bog'lanishlarni bilib olishga, keyin esa ularni bir – biriga taqqoslash va umumlashtirishga yo'llaydi.

Masalan, VI sinf "Jahon tarixi" darsligida ("Qadimgi Xitoy madaniyati" mavzusidan oldin) berilgan "Qadim zamonlarda Misrda hamda Ikki daryo oralig'ida qanday ilmiy bilimlar vujudga kelganligini, ular nima sababdan vujudga kelganligini eslang" degan topshiriq shulardan biridir. Bu topshiriq o'quvchilar oldiga o'tilgan materialni eslashni vazifa qilib qo'yish bilan birga, ularni qadimgi zamonda ilmiy bilimlarning paydo bo'lish sabablarini

umumlashtirib borishga tayyorlaydi. Bu xildagi savollar VII – VIII – IX – sinf “Jahon tarixi” darsliklarida ham bor.

“Reformatsiyaning Yevropaga yoyilishi va katolik cherkovining unga qarshi kurashi” mavzusidan oldin o’quvchilarga XI – XIII asrlarda papalar hokimiyati qanday bo’lganini eslang, degan topshiriq berilgan. Dars boshida bu material takrorlansa, o’quvchilar katolik cherkovining ta’siriga, papalar hokimiyatiga va feodal tartiblarga putur yetkazgan erkin fikrlashga qarshi olib borilgan siyosatni yaxshiroq tushunib oladilar.

O’quvchilarni Angliyadagi manufaktura bilan tanishtirish oldidan ularga o’rta asr shaharlaridagi hunarmandchilik haqida bilgan narsalarini esga olishlari taklif qilinadi. Bu topshiriq o’quvchilarning darsda ishlab chiqarishning har ikkala turini bir – biri bilan taqqoslab, manufakturaning muhim belgilarini aniqlashga yordam beradi.

O’quvchilarni yangi bilimlarni faol idrok qilishga tayyorlashning yana boshqa bir samarali vositasi yangi materialni o’rgatishdan avval ular oldiga o’quv – bilish vazifalarini qo’yishdir. Metodik adabiyotlarda bu vazifalar ba’zan mantiqiy topshiriqlar deb ataladi, chunki ular tarixiy material ustida mantiqiy ish olib borish yo’li bilan bajariladi. O’quvchilarga beriladigan o’quv – bilish vazifalari jumlasiga: o’rganiladigan hodisaning sabablarini va ahamiyatini aniqlash, tarixiy hodisalarning umumiyligi xususiyatlari va farqlarini ko’rsatish, hodisaning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni belgilash, voqeaga yoki tarixiy shaxsga baho berish, o’quvchilarning shu voqealiga yoki shaxs haqida o’z fikrlarini bayon qilishlari va boshqalar kiradi. Bir qancha hollarda o’quv – bilish vazifasi o’rganiladigan materialning rejasini tuzish, materialdagi asosiy fikrlarni bayon qilish, chiqarilgan xulosalarni asoslab berish va hokazolardan iborat bo’ladi.

O’quvchilarning o’quv – bilish vazifalarini bajarishlari ularning yangi materilani o’zlashtirishlari uchun zarur bo’lgan ilgarigi bilimlarini faollashtiradi, o’qituvchi bunday vazifalarni ilgari o’tilgan materialni bolalardan so’rab chiqish vaqtida beriladigan vazifalar ilgari o’rganilgan material bilan mavzu jihatdan bog’langan yangi materialni tahlil qilish va umumlashtirishga undaydi. Masalan,

Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi to'g'risidagi materialni bolalardan so'rab chiqish vaqtida reja tuzish o'quvchilarni ularga ma'lum bo'lган jarayon bilan ular o'rganishga kirishayotgan Angliyadagi shunga o'xshash jarayon o'rtasidagi umumiylikni topishga yo'naltiradi. O'qituvchining Fransiya tarixi materialiga doir yakunlovchi umumlashtirishi, markazlashgan davlatning tashkil topish sabablarini va bu jarayonning qanday borganini ta'kidlab o'tishi ham o'quvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash ko'rinishi hisoblanadi. Shu jarayonda mavzuni "O'zbekiston tarixi" bilan bog'lab, A.Temurning markazlashgan davlat tuzish siyosatini o'quvchilarga aytib o'tish lozim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining isloh qilinishi natijasida ilg'or o'qituvchilar o'z faoliyatlarida turli usullarni qo'llab, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirish maqsadida dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish usulini tez – tez qo'llab turadilar. Muammoli vaziyat yaratish usullaridan biri – dars mavzusini muammoli qilib qo'yishdir.

Yangi material o'rganilishi oldidan o'qituvchi o'rganiladigan voqeа va hodisalarning sabablari va oqibatlarini mustaqil suratda aniqlash, ularning mohiyatini ochib berish, ular o'rtasidagi haqiqiy va faraz qilingan ziddiyatni izohlab berish kerak, degan muammoni o'rtaqa qo'yadi, o'quvchilar navbatdagi ish davomida bu muammoni hal qilib boradilar.

O'quvchilar oldiga muammolar qo'yish o'qituvchidan dalillarni o'quvchilarda mustaqil ravishda izlanish va fikr yuritishga qiziqish tug'diradigan qilib tanlash va guruhlarga bo'lishni talab etadi.

Yangi materilani o'rganish oldidan darsda muammoli vaziyat yaratishga bir misol keltirib o'tamiz. O'qituvchi VII sinfda "Niderlandiya burjua inqilobi" mavzusini boshlar ekan, o'quvchilar oldiga aholisi juda kam, (o'sha davrda 400 000 kishiga yetar - yetmas) kichkinagina bir mamlakat bo'lган va buning ustiga Ispaniyaga qaram holda yashagan Niderlandiyaning XVI asrda Yevropadagi eng boy va ilg'or mamlakatlardan biriga aylanganligi va siyosiy

mustaqil davlat bo'lgan Angliyani o'zining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti jihatidan orqada qoldirib ketganligi sabablarini o'ylab ko'ring. Nima uchun Nederlandiyada inqilob bo'ldi? – degan muammoni qo'yadi va ularning e'tiborini bu masaladagi ravshan ko'rinish turgan ziddiyatga qaratadi.

O'qituvchi bu muammoni ilgari o'zlariga ma'lum bo'lgan, darsda o'qituvchi aytib beradigan hamda darslik matnini o'qish va xaritani ko'rish vaqtida bilib olinadigan dalillarni tahlil qilish yo'li bilan hal etishlari kerak.

O'quvchilarning feodal Ispaniya zulmi ostidagi Nederlandiyada kapitalistik munosabatlarning tez rivojlanish sabalarini bilishga qiziqishlari ularni Angliyada kapitalizmning qanday rivojlanganligi to'g'risida olgan bilimlarini eslashga undaydi. O'quvchilar o'sha bilimlarini ishgaga soladilar hamda ikkala mamlakatning xo'jalik va ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini bir – biriga taqqoslaydilar, natijada bu ish ularni zarur xulosaga yaqinlashtiradi, ularning xulosalari dalil – isbotlarga ko'proq asoslangan, ongli ravishda chiqarilgan xulosa tusini oladi, yangi bilimlari esa chuqur va puxta bo'ladi.

Darsning kirish qismi sifatida biron yorqin hujjatdan, ba'zan esa o'r ganiladigan muammoning mohiyatini aks ettiruvchi va o'quvchilar fikrini mazkur muammoni mustaqil ravishda ifodalab va hal qilib berishga yo'naltiruvchi, bir – biriga qarama – qarshi mazmundagi ikkita hujjatli ma'lumotdan foydalanish yo'li bilan ham muammoli vaziyat yaratish mumkin⁷.

Yuqorida zikr etilganidek, tarix darslarini boy va samarali tashkil etishning yana bir yo'li muammoli vaziyatlar vujudga keltira olish va aynan shu jarayonda didaktik o'yinlardan foydalanishdan iborat. Tarix darslatrida o'qituvchi har bir mavzuga oid ko'rgazma, xarita va turli o'yinlar usullaridan foydalanishi mumkin ekan, avvalo har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik tajribasiga murojaat qiladi, undan foydalanish imkinoyatini izlaydi.

⁷ T. Toshpo'latov, Ya. G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. T. "Universitet". 2002. 45 – bet.

Biz shu o'rinda dars samaradorligini oshirish qanday maqsadlarni ko'zlashini ham aytib o'tilishi lozim deb o'ylaymiz.

1. O'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni uqtirish bilan birga, o'quvchilar tanlangan materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lislari kerak. Y'ani o'qituvchi bayon qilayotgan materiallar muammoli savollar orqali yetkazilishi o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, mavzuni ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim.
2. Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materialni tizimli, izchil bayon qilish bilan bir vaqtida, o'quvchilarni ham albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlashi juda muhimdir.

O'qituvchi dars materiali yuzasidan shunday muammoli savollar bersinki, mavzuni bayon etish jarayonida o'quvchi fikrlasin, izlansin, tarixiy voqeani tahlil eta olsin. Buning orqasidan esa mavzu puxta o'zlashtirilishiga erishish mumkin bo'ladi. O'qituvchi yana bir muhim narsani umutmasligi kerakki, ya'ni sinf jamoasi va har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan bo'lishi zarur hisoblanadi.

3. Endilikda darsda uzoqdan – uzoq vaqt sarflab o'quvchilarning bilimini aniqlash va baholash, bilimlarni bayon etish va mustahkamlashda o'quvchilar ishtirokini cheklab qo'yish hollari barham berilmoqd, bilimlarni bayon etishda o'quvchilar faolligi va tajriba ishlari ishga solinmog'i lozim. Bu esa o'z navbatida o'quvchi avvaldan olgan bilimlarini esga tushiradi, yangi bilimlarni mustahkamlaydi, muammoli ta'lim tizimini chuqurlashtiradi.
4. Tarix darslarida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish o'quvchini mantiqiy fikr yuritishida qunt va irodani tarbiyalash, nutq madaniyatini rivojlantirish, tegishli ko'nikma va malakalarni amalda tahlil eta olish imkonini beradi.
5. Tarix darslari jarayonida o'quv materialining boshqa fanlar bilan aloqadorligi hisobga olinadi va mavzular bir – birini to'ldirib, mustahkamlab boradi.

Biz yuqorida sanab o'tgan jihatlar tarix darslarida muammoli ta'limni joriy etishning zarurligini ko'rsatadi, muammoli vaziyatlar esa dars samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo'lib qolaveradi.

Rejamizdan kelib chiqib, pedagogik malakaviy amaliyat tajribalarimiz shuni isbotladiki, dars samaradorligini oshirishning muhim yo'llari ko'p, ammo didaktik o'yinli darslar tashkil etish va bunday darslarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish katta mas'uliyat va ahamiyat kasb etadi.

Muammoli vaziyatlar yaratilgan darslarda didaktik o'yinlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tarix darslari jarayonlarida didaktik o'yinlar qanday ahamiyat kasb etishi xususida qisman to'xtalib o'tsak. Avvalo, o'qituvchi didaktik o'yinli darslar dasturida quyidagi didaktik talablarga amal qilmog'i lozim.

1. Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy – tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.
2. Muhim muammolarga bag'ishlanishi va o'yin davomida hal qilinishi lozim.
3. Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga sharqona odob – axloq normaraiga mos kelishi kerak.
4. O'yin strukturasi mantiqiy ketma – ketlikda bo'lishi lozim.
5. Mazkur darslarda didaktik tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflangan holda ulkan samaraga erishmoq lozim. Quyida biz didaktik o'yinli darslarning tavsifiga qisqacha to'xtalamiz.

O'rta maktab o'quvchilarida ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarida bor bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni yangi vaziyatlarga qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda syujetli – rolli o'yinlar muhim ahamayat kasb etadi. Ba'zan syujetli – rolli o'yinlar matbuot konferensiyasi bilan almashtirilib yuboriladi. Har ikkala o'yindan ham ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsad bitta bo'lsada, ular o'rtasida farq mavjud.

Bu holni didaktikada didaktik o'yinlarga yetarlicha tavsif berilmaganligi bilan izohlash mumkin. Syujetli – rolli o'yinli darslarda tabiat va jamiyatdagi muammolar uyg'unlashtiriladi. Tarix darslarida "Tadbirkor xodim", "Noma'lum shaharga sayohat", "Aqliy hujum", "Tayanch signallar" va boshqa o'yinli usullardan foydalanish mumkin. Shu o'rinda didaktik o'yinli darslardan "Aqliy hujum" dars usuliga to'xtalsak.

Aqliy hujum biror muammoni yechishda guruh qatnashchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijobjiy qo'llanganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o'rgatadi. Bu usul orqali shaxs psixologiyasini rivojlantirish mumkin.

"Aqliy hujum" usuli prinsipi juda sodda:

Bir guruh ishtirokchilarni to'plab, ular oldiga biror muammoli vazifa qo'yiladi va qatnashchilardan mazkur muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z yechimlarini (fikr, mulohaza) bildirishlari so'raladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilardan g'oyasini, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas.

"Aqliy hujum" usulini qo'llashning asosiy qoidalari:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'limg'ur bo'lsa ham hisobga olinadi.
3. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bo'lsa shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Yana shunday ijodiy o'yinli darslar mavjudki, bunda o'quvchigina emas, o'qituvchining o'zi ham ijodiy izlanadi. Qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyoji ortadi. Eng asosiysi ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari ijodiy qo'llanishi, izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash mumkin.

Ijodiy o'yinli darslardan “Tarixiy jarayonning asosiy qonuniyatları”, “Qonunlar tarixiga nazar” kabi darslar rejallashtirilib, o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi. “Tarixchilar”, “Qalqon” deb nomlangan kichik guruhchalarga nomlar beriladi. Har bir guruh ijodiy izlanib, go'yoki fanda yangilik kashf etadi. O'quvchilar tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni ko'rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib o'z javoblarini asoslaydi.

Ma'lumki, ta'lim respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha deb e'tirof etilgan.

Jamiyat ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimi ham takomillashib bormog'i, tubdan yangilanayotgan jamiyat manfaatlari yo'lida xizmat qilmog'i zarur. Chunki ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosidir. **O'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda o'qituvchi bilan o'quvchi o'zaro munosabatlarini o'zgartirish masalasi o'ta muhimdir.** Chunki bu masala bevosita yoshlarimiz ruhiyatiga, ongiga, tafakkuriga ta'sir etish yo'li bilan amalga oshiriladi⁸. Bunda ta'lim maqsadi, prinsiplari, tashkil etish shakllari, mazmuni, metodlari, vositalari, natijalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning zikr etilgan komponentlarini o'zaro bog'liq sifatida **didaktika** tadqiq qiladi. **Didaktika o'ziga xos tadqiqot ob'yektiga ega bo'lganidek, uning tushunchalar tizimi mavjud.** Bu tushunchalarda **didaktik ob'yeqtning muhim xususiyatlari o'z ifodasini topadi**⁹. Fikrimizcha, ana shu tushunchalar mohiyatining o'qituvchi tomonidan anglanishi ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga imkon beradi.

Mazkur didaktik – o'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar. Muammoli savollarga javob izlab mavzuni to'ldiradilar. Yangicha usul, bilimlarni yangicha egallash o'quvchini o'z bilimi va iqtidoriga ishonch uyg'otadi. **Natijada o'quvchi sidqidildan ko'rilgan jiddiy tayyorgarlik**

⁸ “Xalq ta'limi” journali. 2007. 1 – son, 60 – bet.

⁹ “Xalq ta'limi” journali. 2007. 1 – son, 61 – bet.

muvaqqiyatlarning garovi ekanligini anglaydi. Yanada ko'proq bilim olishga kirishadi. Jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni aks ettirishga o'quvchilarning muayyan bilim ko'nikma va mamlakatlarni shakillantirishga qaratilgan hamda kasbiy sifatlarni tarkib toptirish ularni ongli ravishda kasbga yo'llashga ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga mo'ljallangan didaktik o'yinlarni ishbilarmonlar o'yini deyiladi.¹⁰ Ishbilarmonlar o'yini ham boshqa o'yinlar kabi o'qituvchi va o'quvchilardan puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. O'qituvchi ishbilarmonlar o'yinini uyushtirishda quyidagi vazifalarni bosqichma – bosqich amalga oshirishi zarur:

1. O'yin mavzusini oldindan belgilashi.
2. Didaktik o'yining maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma – ketligi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlarni aniqlash va rejalshtirish.
3. Didaktik o'yin davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan o'quv – bilishga oid muammoli vaziyatlar tizimini vujudga keltirish yo'llarini aniqlash va loyihalash.
4. O'quvchilarni didaktik o'yining maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, didaktik o'yin talab etadigan vazifalarni taqsimlash, har bir o'quvchiga aniq yo'llanma berish.
5. Mazkur o'quv – bilishga oid muammoli vaziyatlarni hal etishda o'quvchilarning avvalgi mavzularidan o'zlashtirgan bilim ko'nikma va malakalarini tanish odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash.
6. O'quvchilarning didaktik o'yiniga tayyorgarlik faoliyatini kuzatish va nazorat qilish.

Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati avvalo o'quvchilarning mazkur o'yinlarga puxta va qizg'in tayyorgarlik ko'rishlariga o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish hamda mohirlik bilan boshqarishiga bog'liq. O'quvchilarning bunday o'yinga tayyorgarlik ko'rish faoliyati quydag'i masalalarni bilishni:

¹⁰ A.I.Strajev Metodika prepodavaniya istorii. M., 1984.134 – 135 – betlar.

1. Didaktik o'yining maqsadi, vazifasi, olib borilish tartibi qoydalari bilan tanishishni.
2. Didaktik o'yin maqsadi va vazifasidan kelib chiqadigan muammoli vaziyatni aniqlashni.
3. Muammoli vaziyatdan chiqishning samarali yo'llarini topishni.
4. Har bir o'quvchining o'zi bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni anglashib o'qituvchining kerakli yo'riqnomalarini olishni.
5. Turli bilim manbalaridan foydalangan holda muammoli vaziyatni hal etishning optimal variantini tanlashni.
6. Didaktik o'yin ishtirokchilari o'rtasida o'zaro yordam va o'zaro nazorat vujudga kelishini taqozo qiladi.

Tarix darslarini o'qitishda dehqonchilik, chorvachilik, mashinasozlik sanoati va boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari mavzusini ishbilarmonlar o'yini auksion – dars o'zining mutaxassisligini chuqr o'zlashtirgan, pedagogik – psixologik va metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim – tarbiya jarayoni samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim – tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablariga mos holda tashkil etgan o'qituvchi har bir mavzu mazmuniga mos holda o'quvchilarni kasbga yo'llashi va shu kasblarini egallashlari uchun qanday bilimlarga ega bo'lish lozimligini to'g'ri tushuntira borishi kerak. Bunday maqsadlarni ro'yobga chiqarishda tarix darslarini tashkil etishning an'anaviy shakllardan voz kechib uni bozor iqtisodiyotidagi muammoni hal etishga yo'naltirish hozirgi vaqtda tarix o'qitish ta'limi oldidagi dolzarb muammo hisoblanadi.

Didaktik o'yinli darslarni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni yangi kasblar bilan tanishtirish, dars jarayonida esa muammoli ta'limni joriy etish dars samaradorligini oshishi hamda ta'lim sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

I.II. Yangi o'quv materialini o'rgatishning zamonaviy usullari.

Darsdagi o'quv jarayonining asosiy elementi yangi materialni o'rgatishdir. Yangi materialni o'rgatish uchun VI – VII sinflarda o'qituvchining shu materialni og'zaki bayon qilishidan, uning o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishidan, turli xil ko'rsatmali qo'llanmalar, hujatlar va darslik matni ustida olib boriladigan ishlardan keng ko'lamda foydalaniadi.

Tarix o'qitishda, xususan VI – VII sinflardagi tarix darslarida materialni og'zaki bayon qilish yetakchi o'rinni tutadi. Og'zaki bayon o'quvchilarni tarixiy material bilan mavzu jihatdan yaxlit bir holda, xronologik izchillikda va emotsiyal formada tanishtirish imkoniyatini beradi. O'qituvchining ishonarli qilib gaphirishi o'quvchilarning ongi va his – tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni mantiqiy fikr yuritishga, o'quv materialini dalil – isbotlar bilan asoslab so'zlab berishga o'rgatadi.

Yangi materialni bayon qilish muammosiz yoki muammoli bo'lishi mumkin. Muammoli bayon vaqtida o'qituvchi tegishli xulosalarni o'quvchilarga aytilib bermay, xulosalar chiqarishni ularning o'zlaridan talab etadi, lekin bu paytda odatda dalillarni o'quvchilar oldiga qo'yilgan muammoga va o'quv – bilish vazifalariga muvofiq zarur xulosalarni o'zlarini mustaqil ravishda chiqara oladigan qilib tanlashi, guruhlarga ajratishi va bayon qilishi kerak. Respublikamizdagi ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari shuni ko'rsatadiki, yangi materialni muammoli bayon qilish usulini VI – VII sinf "Jahon tarixi" darslarida, cheklangan darajada bo'lsa ham qo'llash mumkin.

Karl Buyuk imperiasining tashkil topishi haqidagi material VII sinfda muammoli bayon qilinishi mumkin. Bu ish o'zsha zamonda yashagan va Karl Buyukning faoliyatini bir – biriga zid holda bayon qilgan hamda baholagan kishilarning bergan turli ma'lumotlarini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.
Bunday ma'lumotlarning birinchi guruhiga Karl Buyukning o'z saroy tarixchisi Eyngard tomonidan ko'klarga ko'tarib maqtab yozilgan tarjimai holidan olingan parchalar kiradi¹¹.

¹¹ O'rta asrlar tarixi (V – XV asrlar). Xrestomatiya, V.Ye. Stepanova, A.Ya. Shevlenko. M. 1989. 60 – bet.

Ikkinchi guruhdagi ma'lumotlar yilnomalarda keltirilgan ma'lumotlardan va yuqoridagi manbadan olingan ayrim dalillardan iborat bo'lib, ular Karlni olihimmat va odil hukmdor qilib ko'rsatuvchi afsonalarning yolg'onligini fosh qilishda o'quvchilarga ob'yektiv ravishda yordam beradi. Bu ma'lumotlar Karlning frank zodagonlari manfaatini ko'zlab ish tutgan zolim istilochi bo'lganini ko'rsatadi.

O'qituvchi materialni bayon qilishda shu har ikkala guruhdagi ma'lumotlarni aytib o'tadi, bamisolli tadqiqotchilar holiga solib qo'yilgan o'quvchilar oldiga esa Karl Buyukning faoliyati va shaxsiy xususiyatlariga baho berish, bunda dalillarni uydirmalardan yoki Karl zamondoshlarining buzib ko'rsatishidan ajratib olish vazifasi qo'yiladi.

Kerakli materialni olganidan keyin o'qituvchi o'z hikoyasini o'quvchilarning to'g'ri baho berish va o'z baholarini dalillar bilan isbotlay olishlariga imkon beradigan qilib tuzadi.

Materialni ana shunday muammoli bayon qilishning bir variantini misol qilamiz: "... Saroy tarixchisi Eyngardning yozishicha, Karl Buyuk qudratli, zabardast, kuchli va rahmdil odam. Kiyimiga qarab uni oddiy kishilardan farq qilib bo'lmaydi: u egniga dag'al bo'z ko'ylak, ishton va plashch kiyib yuradi, oyog'iga esa paytava o'rav, dehqonlar yuradigan boshmoqda yuradi. Ovqatning eng oddiysini afzal ko'radi. U nihoyatda sog'lomligi, baquvvatligi bilan ajralib turadi. Ish qilganda – charchash nimaligini, urush qilganida – yengilish nimaligini bilmaydi. Ko'p xalqlar o'z ixtiyorlari bilan unga bo'sunadilar. Ba'zilarni saxiyligi bilan o'ziga tortadi, ba'zilarni esa va "sabr va andisha" bilan ish tutib o'ziga tobe qiladi". Eyngardning bergen ma'lumotiga qaraganda, Karl hech qachon biror mamlakatga birinchi bo'lib hujum qilmagan – urushni hamisha uning notinch qo'shnilarini boshlagan emishlar. Karl yaqin va uzoq qo'shnilarini "xiyonatkorona harakatlari uchun jazolab", G'arb va Sharqdagi ko'p mamlakatlarning hukmdori bo'lib qolgan emish. Bu qudratli imperator saxiylik bilan in'om ehsonlar ulashgan emish.

Yilnomachilarning qisqacha ma'lumotlarini va Karlning o'z farmonlarini o'qisak, uning butunlay boshqa odam bo'lganligini bilamiz. Masalan, sakslarni qanchalik azob – uqubatda qolishlariga sababchi bo'lgani, 4500 saksni o'ldirishga buyurgani, ularning milliy urf – odatlarini oyoq – osti qilganligi, uning farmoni bilan 10 000 saks oilasi bilan boshqa mamlakatga haydab olib ketilganligi, Saksoniyaga 30 martadan ko'p yurish qilganligi, qishloqlarni yondirib vayron qilganligi uning yovuzliklarini ko'rsatuvchi harakatlar edi.

Karlning yana boshqa yurishlari mohiyatini ham o'qituvchi misollar bilan tarixiy hujjatatlarga tayanib, asoslanib o'quvchilarga yetkazadi. O'qituvchining materialni muammoli qilib bayon etishi o'quvchilarga dalillarning fosh qiluvchi kuchi, Karlning safdoshi bergen yolg'on guvohliklarga zid o'laroq, istilochining haqiqiy basharasini juda ravshan ochib berishni tushunib olishga yordam beradi.

Yaxshi o'ylab tanlangan va guruhlangan, muammoli qilib bayon qilingan material VII sinf o'quvchilarining o'z xulosalarini ifodalab va asoslab berishlarini ta'minlaydi. (**Malakviy pedagogik amaliyot jarayonida orttirgan tajribalarimiz ushbu mavzu VII sinf o'quvchilariga tarixiy materialni ma'lum darajada muammoli qilib o'rgatish ijobiy samara berish mumkinligini ko'rsatdi.)**

Tarixiy materialni muammoli va muammosiz bayon qilish jarayonida o'qituvchi og'zaki nutqning: syujetli hikoya, tasviriy bayon, tarixiy hodisa va tarixiy shaxslarga tavsif berish, qisqacha bayon, tushuntirish kabi har xil turlaridan foydalanadi.

Syujetli hikoya – ko'pincha dramatizm xususiyati bilan ajralib turgan, muayyan tarixiy syujetga ega bo'lgan, his – tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadigan, batafsil bayon qilinadigan hikoyadir. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixidagi eng katta va dramatik voqealar, masalan, Salamin jangi, Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni, Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni, Yan Gus, Janna d' Arkning

chiqishlari va fojiali halokati, Konstantinopolning olinishi hikoya tarzida bayon qilinadi¹².

Syujetli hikoyada tarixiy voqealarning yorqin epizodlari, tafsilotlari bayon qilinadi, shuningdek, bu voqealarning ishtirokchilari bo'lgan tarixiy shaxslarning tavsifi beriladi.

Dramalashtirish usuli, voqeada ishtirok etgan shxslarning dialog va monologlarini kiritish syujetli hikoyada keng qo'llaniladi. Shu maqsadda tarixiy arboblarning tarixiy hujjatlardagi ma'lumotlardan keng qo'llaniladi.

Tasviriy bayon – o'qituvchining tarixiy hodisalarni muhim xususiyatlari va detallari bilan birga yaxlit, bir butun manzara ko'rinishida obrazli qilib gavdalantirishidir. Tasviriy bayon syujetli hikoyaga o'xshaydi, lekin aniq – tarixiy syujetga ega emasligi bilan undan farq qiladi. Tasviriy bayon kishilik jamiyatining xo'jalik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ko'p marta takrorlanadigan tipik hodisalarni ko'z oldiga keltirish, shuningdek, ayrim mamlakatlarning tabiatni va ulardagagi xalqlarning ijtimoiy hayoti manzaralarini gavdalantirib berish uchun qo'llaniladi.

Tasviriy bayon vaqtida madaniyat yodgorliklarining rasmlari texnik vositalar yordamida slaydlar ko'rinishida yoki oddiy surat ko'rinishida ko'rsatilsa, o'quvchilar quidorlar va oddiy kishilarning qanday sharoitda yashaganliklarini ravshan tushunib oladilar, qadimgi dunyoning g'oyat ulug' madaniy merosi bilan tanishadilar.

O'qituvchi o'z hikoyasida tarixiy hujjatlar va badiiy asarlar matnidan parchalar o'qib bersa yoki ularni darslik matni bilan birga qo'shib gapirib bersa, uning hikoyasi obrazli, aniq va emotsiyal bo'ladi. Materialning yorqin bayon etilishi o'quvchilarning materialga diqqat – e'tiborini va qiziqishini oshirsa – da va ularning ijodiy tasavvurini o'stirsa – da, lekin bu hali bilmlarning yaxshi o'zlashtirilishini hamma vaqt ham ta'minlay olavermaydi. Shuning uchun o'qituvchi materialni bayon qilayotganda o'quvchilarning bilim olish faolligini

¹² A.Sa'diyev O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. T."O'qituvchi". 1993. 45 – bet.

kuchaytiradigan, yuqorida qisman aytib o'tilgan maxsus usullarni qo'llashi zarur bo'ladi.

Analitik bayon – o'rganiladigan hodisalarning asosiy elementlarini ularning muhim belgilarini ajratib ko'rsatgan holda bayon qilishdir. Analitik bayon o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini yaratmaydi va shu jihat bilan tasviriy bayondan farq qiladi. Analitik bayon VI – VII sinflardagi tarix darslarida biror mamlakatning geografik muhiti, ijtimoiy munosabatlari, davlat tuzilishi ta'riflab berilayotganda, turli davrlar va xalqlarning moddiy madaniyat yodgorliklari (ko'pincha – bir – biriga taqqoslab) o'rganilayotganda qo'llaniladi.

Ko'p hollarda, masalan, Misr piramidalariga, gotik soborga xarakteristika berishda tasviriy bayon bilan analitik bayonni bir – biridan ajratish qiyin bo'ladi.

O'quvchilarning ishini faollashtirish uchun analitik bayondan oldin o'quvchilarga mamlakat siyosiy tuzumining sxemasini yoki urushning borishi sxemasini chizish, o'rganiladigan hodisaning asosiy belgilarini ko'rsatish va shu hodisaga baho berish to'g'risida vazifa topshirish ma'quldir.

Tarixiy voqeа yoki hodisaga ta'rif berganda shu voqeа va hodisaning eng muhim xususiyatlari ochib beriladi. Bu ta'rif, ko'pincha mavzuning bir yoki bir necha darsda o'tilgan qismi yuzasidan chiqarilgan asosiy xulosalardan iborat bo'ladi. Bunday ta'rif analitik bayonga o'xshasa ham lekin hodisaning asosiy belgilarini ancha aniq ko'rsatib berishi va ko'proq darajada umumlashtirishi bilan undan farq qiladi. O'qituvchi uzoq vaqt mobaynida davom etadigan jarayonlarni, masalan, hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi va shaharlarning paydo bo'lishi jarayonini, feodalizmning tushkunlikka tushishi va yemirila borishi jarayonini, odatda butun mavzuga doir kirish darslari va yakunlovchi darslarda umumlashtirgan holda, qisqacha ta'riflab o'tadi.¹³

Tarixiy arboblarga ta'rif berish – shu arboblar faoliyatining sinfiy xarakterini hamda ularning shaxsiy xususiyatlarini ochib berishda

¹³ A.Sa'diyev O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. T."O'qituvchi". 1993. 53 – bet.

qo'llaniladigan o'qituvchi og'zaki bayonining alohida bir turidir. Tarixiy arboblarga beriladigan ta'rif qanday asosiy talablarga javob berishi kerakligini A.I.Srajev quyidagicha ifodalagan:

“1. Tarixiy arbob o'zi yashagan davr muhitida, shu shaxs o'z faoliyati va maslak – qarashlari bilan o'zini namoyon qilgan tarixiy sharoit bilan chambarchas bog'langan holda ko'rsatilishi kerak...

2. Tarixiy arbob qaysi sinf yoki sinfiy guruhning manfaatlarini ifodalasa, o'sha sinf yoki sinfiy guruh bilan yaqindan bog'langan holda ko'rsatilishi kerak; bu ishni tarixiy shaxsning o'z faoliyati, fikr – mulohazalari bilan bog'lash lozim...

3. Tarixiy arbob “jonli shaxs” qilib ko'rsatilishi, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos ma'naviy va jismoniy qiyofasi ta'riflab berilishi kerak...”¹⁴.

Qisqacha bayon – bir qancha dalillarni batafsil tahlil qilmay tushuntirishdan iborat bo'lib, u o'quvchilarga tarix kursidagi asosiy dalillarning o'zaro bog'langanligini anglatish, ularda tarixiy jarayonning borishi haqida yaxlit, bir butun tasavvur hosil qilish uchun zarurdir. O'qituvchining materialni qisqacha bayon qilishi o'quvchilarini, ayniqsa VI – VII sinf o'quvchilarini odatda uncha qiziqtirmaydi, bunda ular materialni bo'sh o'zlashtiradilar. Binobarin, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning maxsus usullarini qo'llash, ya'ni ularga xronologik jadval tuzishni, o'qituvchi hikoya qilib bergen narsaning rejasini tuzishni vazifa qilib topshirish lozim bo'ladi.

¹⁴ A.I.Srajev Metodika prepodavaniya istorii. M., 1992. 144 – 145 – betlar.

I.3. Tarix darslari jarayonida o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash va o'quvchiga yondashish bo'yicha texnologiyalar.

Darsda yangi o'quv materialini chuqurroq o'zlashtishning muhim sharti va vositasi – o'rganiladigan faktlar va umumiy xulosalarni muntazam ravishda xotirada mustahkamlasb borishdir. O'quvchilarning har qaysi darsda o'rganiladigan materialni o'sha darsning o'zida ikkinchi marta idrok qilib va tushunib olishlari materialni xotirada mustahkamlash deb ataladi. Tarix darslarida yangi materialni xotirada mustahkamlashning asosiy maqsadi – o'rganiladigan dalillarni, sanalarni, tarixiy arboblarning ismini, geografik nomlarni, tarixiy tushunchalarni o'quvchilarning puxta va ongli ravishda bilib olishlariga yordam berish, shularni o'zlashtirishda kamchiliklar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'zlashtirilgan material bilan yaxshiroq bog'lash, darsda o'rganiladigan materialni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirayotganini tekshirish va shu bilan ularning darsda diqqat – e'tiborlarini kuchaytirishga yordam berishdir.

Psixologiya fanida ta'kidlanishicha, o'rganiladigan dalil va hodisalar shu darsning o'zida o'quvchilarga yana bir marta eslatilmasa, ayniqsa tez unutiladi. Binobarin, yangi materialni o'rganish jarayonidayoq bilimlarning o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradigan sharoitlar yaratish, yangi bilimlarni eski bilimlar bilan, ma'lum bo'lman narsalarni ma'lum bo'lgan narsalar bilan bir – biriga bog'lab, o'quvchilar xotirasida endigina paydo bo'layotgan va hozircha hali zaif holda bo'lgan bu bog'lanishlarni mustahkamlash, keyin esa qo'shimcha usullar yordamida ularni o'quvchilarning yanada chuqurroq esda olib qolishlarini ta'minlash uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish zarur.

Xotirada mustahkamlash ishga yangi materialni o'rganish bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yangi materialni o'rganish jarayonida, shuningdek, dars oxirida tashkiliy suratda o'tkaziladi. VI – VII sinflarda esa bu ishni, odatda, dars davomida ham, dars oxirida ham olib borish kerak.

Tarixiy materialni xotirada mustahkamlash usullari quyidagicha:

Masalan, VI – VII sinflarda hozirgina o’rganilgan materialning mazmuni yuzasidan dars oxirida suhbat olib borish usuli keng tarqalgan. Lekin bu suhbatda mazkur yangi materialning hammasini gapirib o’tish noto’g’ri bo’ladi. Eng murakkab va muhim masalalarни tanlab olib, o’shalar haqida so’z yuritish zarur.

Xotirada mustahkamlanadigan masalalar, avvalo, o’rganilayotgan materialning mazmuniga qarab tanlanadi.

Agar o’qituvchi bayon qilgan material siyosiy tarixga doir voqealarning tasviriy hikoyasi xarakterida bo’lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida, ba’zan hikoya mazmunining eng muhim qismi rejasini tuzish, ba’zan esa voqealarning (masalan, qo’zg’olonlar va urushlarning) sabalari, o’qibatlari va ahamiyatini faqat tahlil qilib chiqish kifoya qiladi.

Agar yangi materialda jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi murakkab jaaryonlar bayon etilgan bo’lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida tarixiy jarayonning hamma asosiy tarkibiy qismlarini va ular o’rtasidagi sabab – natijali bog’lanishlarni o’quvchilarga birma – bir eslatish kerak.

VII sinfda “G’arbiy Yevropada shaharlarning vujudga kelishi” mavzusi o’tilayotgan darsda xotirada mustahkamlanadigan material bilan yangi o’rganiladigan material o’rtasidagi ana shunday nisbatga doir bir misolni sxema tarzida ko’rib chiqamiz.

O’rganish rejası	Yangi materialni (dars oxirida)xotirada mustahkamlash uchun beriladigan savollar
<p>I. Qishloq xo’jaligi bilan qishloq hunarmanchiligidan erishilagan yutuqlar, qishloq xo’jaligi hunarmandchiligi mahsulotlarining o’sishi.</p> <p>II. Hunarmandchilik qishloq xo’jaligidan ajrala boshladi.</p>	<p>I. Xo’jalikda yuz bergen asosiy o’zgarishlar nimalardan iborat?</p> <p>II. 1).Darslikdagi:“Hunarmandchilik asta – sekin qishloq xo’jaligidan ajrala bordi”, - degan xulosani qanday tushunasiz? 2). Nima uchun hunarmanchilik qishloq xo’jaligidan ajrala boshladi? 3).</p>

<p>III. G'arbiy Yevropada shaharlar vujudga kela boshladi.</p>	<p>Bu hodisa qachon bo'ldi?</p> <p>III. 1). O'rta asrlardagi shaharlarning qishloqdan asosiy farqi nimada edi? 2). Nima uchun X – XI asrda G'arbiy Yevropada yangi shaharlar vujudga kela boshladi?</p>
---	---

Xo'jalik taraqqiyotining yangi xususiyatlarini va shaharning qishloqdan farqini aytib berishni talab etuvchi savollar o'rganilgan materialni xotirada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan bilimlar bilan yangi bilimlarni bir – biriga bog'lovchi halqa bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ular o'quvchilarning tafakkurini o'stirish vositasi hamdir.

Bir qancha hollarda, materialni xotirada mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlarga hujjatdan olingan kichikroq parchani tahlil qilishni yoki o'rganilgan materialdagi muhim masalalar yuzasidan bilishga undaydigan mashq bajarishni kiritish ma'quldir. Masalan, yuqorida tahlil qilib ko'rib chiqilgan darsda, orta asr shaharlarining dastlabki o'sishiga yordam bergen sharoitlarni o'quvchilarning yodida yaxshi qoldirish uchun ularga quyidagi mashqni berish mumkin.

"Hujjatlarda aytilishicha, bir qancha yangi shaharlarning dastlabki senyorlari (shahar bino qilingan yerlarning egalari) shu shaharlarga ko'chib kelgan odamlarni... ular orasida qishloqlardan – o'z feodallaridan qochib kelgan krepostnoylar bo'lishiga qaramay. Shahar yer soliqlarini to'lashdan ozod qilardilar. Bu dalillarning sababini aytib bering".

Agar o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishlarini yetarli diqqat – e'tibor bilan tinglashga hali odatlanmagan bo'lsalar va darsning asosiy mazmunini gapirib berishga qiynalsalar, o'tilgan darsni xotirada mustahkamlash vaqtida ular oldiga o'qituvchi so'zlab bergen asosiy dalillarni takror aytib berishni talab etuvchi savollar qo'yish foydalidir. Bunda o'quvchilar dalillarni ularning o'zaro bog'lanishlari va munosabatlari bilan ko'rsatib, ular haqida zarur xulosalar chiqarishlari lozim.

Shu bilan birga, o'quvchilarning o'z javoblarini hozirgina o'rganilgan materialni aynan so'zma – so'z takrorlashga aylantirib yubormasliklariga harakat qilish kerak. O'quvchining materialni bayon qilish yo'lini materialning dastlabki bayonidan burmuncha boshqacharoq yo'lga burib yuborish o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi xalifalik mamlakatlarida fan va san'atning rivojlanishi to'g'risidagi materialni xotirada mustahkamlash vaqtida VII sinf o'quvchilari oldiga uni oddiygina qayta gapirib berish o'rniga Markaziy Osiyo xalqlarning, shu bilan birga boshqa Sharq xalqlarining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini aytib berishni vazifa qilib qo'yishi mumkin.

Butun mavzuning materialini takrorlash va xotirada mustahkamlash vaqtida o'quvchilarga o'rganilgan hodisa qanday sodir bo'lganini va uning rivojlanishidagi ma'lum bosqichlarni esga olishni yoki bir turli dalillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berishni, o'rganilayotgan voqealarning boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixidan ma'lum bo'lgan voqealar bilan sinxronligini aniqlashni taklif qilish mumkin. Lekin o'quvchilardan samarali fikrlashni talab etuvchi bunday savollarni o'rtaga qo'yish dalillarni takror aytib berishni talab etadigan savollar berishni mustasno qilmaydi, chunki bunday savollar o'sha dalillarni va ular o'rtasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni bolalarning esida yaxshi qoldirishga, ularning o'zlashtirishini tekshirib ko'rishga yordam beradi.

Shunday qilib, materialni xotirada mustahkamlash vaqtida oddiy takrorlash (reproduktiv) va samarali fikr yuritish (produktiv) xarakteridagi javoblar qaytarishni talab etadigan savollarni o'quvchilarga joyiga qarbg'ish aralash berib borish kerak.

O'quvchilarning o'qituvchi hikoyasi yuzasidan reja tuzishlari, sinf doskasida va o'z daftarlarda murakkab bo'limgan xronologik va sinxronik jadvallar tuzishlari yangi materialni esda saqlab qolishlariga yordam beradi. O'quvchilarning makon tasavvurlarini kengaytirish va mustahkamlash uchun darsda kontur xaritadan osonroq mashqlar o'tkazish foydalidir.

O'quv suratining mazmunini esda yaxshi qoldirishni ham, odatda, yangi materialni o'rganisgda beriladigan savollarni oddiygina takrorlashdan iborat qilib qo'yish yaramaydi. Bu paytdagi savollar o'rganiladigan hodisalar o'rtaсидаги yangi bog'lanish va munosabatlarni o'quvchilarga ko'rsatib beradigan va ularning suratni mustaqil tahlil qilish uchun o'z bilimlarini tatbiq eta bilishlariga yordam baradigan savollar bo'lishi kerak.

Masalan, Germaniyada dehqonlar urushi o'tilayotgan darsda "Myunser Frankenxauen shahri yaqinida" nomli texnika vositasi o'rqali ko'rsatiladigan yoki devorga osib qo'yiladigan ko'rgazmaning mazmuni tahlil qilinadi. Bu surat mazmunini xotirada mustahkamlash vaqtida o'quvchilarga dehqonlarning yengilish sabablarini eslash va surat mazmuni asosida umumlashtirishni taklif qilish mumkin.

O'rganilgan yangi materialning xotirada mustahkamlashning samarali vositasi jadvallardan foydalanishdir. "Franklarda davlatning tashkil topishi" mavzusi o'tilayotgan darsda darslikdagi "VI asrda franklar davlati" jadvalini tahlil qilish yangi materialni xotirada mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qila oladi.¹⁵

Tajriba shuni ko'rdatdiki, mavzuni o'rganishga kirishilganda sinf o'quvchilariga: dars davomida yoki oxirida yozma topshiriq bajarishlari lozimligi aytilsa, ularning darsga diqqat – e'tibori, bilish faolligi va yangi materialni o'zlashtirishi oshadi.

O'quvchilar faqat dars vaqtida emas, balki uyga berilgan topshiriqni bajarish vaqtida ham o'tilgan materialni xotirada mustahkamlasalar va takrorlasalargina chuqur va puxta bilim olishlari mumkin.

Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar

1) Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o'quv – tarbiyaviy jarayonning yakka sub'ekti hisoblanadi, o'quvchi esa faqatgina "ob'yekt", biror – bir qismdek bo'ladi. Ular maktab hayotining qat'iy tashkil etilishi, o'quvchilarning

¹⁵ T. Toshpo'latov, Ya. G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. T. 2002 yil, 35 – bet.

tashabbusi va mustaqilligiga yo'l qo'ymaslik, talab va majburlash qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

2) Didaktotsentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e'tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sub'yekt – ob'ektli munosabatlarlar hukm suradi, o'qitish ta'limdan ustun qo'yiladi va shaxsni shakllantirishning eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

3) Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar butun maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchiliklarsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni qo'yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina ob'yekt emas, balki muhim sub'yekt hamdir: u biror – bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta'lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktotsentrik texnologiyalarida bo'lganidek). Bunday texnologiyalarni yana **antrotsentrik** deb ham ataydilar.

Shunday qilib, shaxsga – yo'naltirilgan texnologiyalar antrotsentrikligi, insonparvarligi va psixoterapevtik yo'nalganligi bilan ifodalanadi va bolaning har tomonlama, erkin va ijodiy rivojllanishini maqsad qilib oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik – shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustaqil yo'nalganligi bilan ajralib turadi.

4). Insonparvarlik – shaxsiy texnologiyalar birinchi navbatda o'zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo'llashga psixoterapevtik yo'nalganligi, unga yordam ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muhabbatni, majburlashni rad etib uning ijodiy qudratiga ishonchni targ'ib qiladi.

5). Hamkorlik texnologiyasi, o'qituvchi va bola o'rtasidagi ob'yektiv – sub'yektiv munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalga oshiradi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo'lib baho beradilar.

6). Erkin tarbiya texnologiyalari bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko'pmi ozmi tanlashi va mustaqilligi erkinligi berishga e'tiborni qaratadi. Tanlovni amalga oshirib bola natijalarga tashqi ta'sir ostida emas, balki ichki tuyg'ulari orqali boradi, u sub'yekt nuqtai nazarini eng yaxshi uslub bilan amalga oshiradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlari.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lim uchun" konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'yektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multmedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).
2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday

strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli – tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash "yakkayu yagona to'g'ri javob"ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarining shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli – tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvshilar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlichalarini e'tibor bilan tinglash;

- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979) lar ta'kidlashadiki, o'z fiklarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. O'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, o'quvchilar sustkash tinglovchilar bo'lismasi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish

kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. Mixail Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, o'quvchilar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqlar tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lshi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkonini bo'lgan muhitda o'yash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lshi lozim. Bu esa o'quvchilarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida o'quvchilarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. O'quvchilarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr almashuv. Fikrlash jarayoni o'quvchilarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. O'quvchilarning o'zaro fikr olishishi ularning bir – biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligidagi asos soladi. O'quvchilardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O'zaro fikr olishishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'r lab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban o'quvchilar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq o'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr almashish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aylandi. Idrokning bu tipida o'quvchi g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. O'quvchilar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayonini aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'rilibini, foydaliligin va o'quvchilarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- o'quvchilarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- o'quvchilarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- o'quvchilarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- o'quvchilarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo'lган hurmat kayfiyatini yaratadi;
- o'quvchilarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;
- o'quvchilarda qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;

O'qitishning interaktiv metodlari

“Aqliy hujum”

Shunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o'tkazish vaqtani aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

“Munozara” metodi.

Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar.

Munozarani o'tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- “hujum”dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;
- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiyligi zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;
- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;
- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasisiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlari berildi. Agar biror bir kishi tomonidan “aqliy hujum”ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lgnuncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum” ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. g'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil

qilishga kirishdilar va natijada o’rtaga qo’yilgan muammoning yechimiga tegishli bo’lgan fikrlargina ajratib olinadi.

5. Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

“O’z o’rningni top” metodi.

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo’yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko’pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o’tilayotgan mavzuni o’rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o’quvchilarga o’z fikrini bayon qilishga, muloqot ko’nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo’ladi. Uchinchidan, dars so’ngida o’qituvchi tomonidan mavzuni o’zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. Sinfning qarama – qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga “rozman”, boshqasiga “rozi emasman” degan so’zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo’yicha bildirilgan qarama – qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o’z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o’quvchilarga taklif etildi.

4. Bo’lingan o’quvchilardan o’z qarashlarini asoslash so’raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhgaga o’tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o’quvchilarining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo’yicha fikrlar bildirilgach, o’quvchilar ichida munozara davomida o’z nuqtai nazarini o’zgartirganlar va boshqa guruhgaga o’tuvchilar bo’lishi mumkin. Bunday hollarda ular o’z o’rnini o’zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo’ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o’quvchilarni aniqlash so’raladi. “Kichik guruhlarda ishslash”. - Kichik guruhlarda ishslash o’quvchilarning darsda faolligini

ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir – biridan sinfda o'rganishga imkonи tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

“Menyu” - Yakka tartidda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o'qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o'quvchi) ga aniq topshiriq beriladi.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qilishadi, so'ngra har guruhlardan bittadan vakil o'qituvchi stoliga kelishadi va tayyor “Menyu”ni olib qaytishadi. Bu uzun qirqilgan qog'ozlar - “Tillar” bo'lib, ularda xilma – xil huquq normalari bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z guruhiга olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki ham bo'lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

“Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishslash” - Kichik guruhlarda ishslashning yana bir samarali metodi – bu nashr qilingan materiallar bilan ishslash hisoblanadi. O'quvchilarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4 – 5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbumlar, byulletenlar olishadi.

Zaruriy materiallar: A - I Formatli oq qog'oz, qaychi, yelim.

Topshiriqlar:

O'quvchilar 5 guruhga bo'linishadi va har bir guruhga tegishli topshiriq beriladi.

I-guruhga topshiriq: "Ma'naviyat – kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui" degan ta'rifning mazmunini izohlang.

2-guruhgaga topshiriq: "Ma'naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman", degan fikrning mazmunini izohlang.

3-guruhgaga topshiriq: "Hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hamma narsani hal qiladi", degan so'zlarning mazmun – mohiyatini izohlab bering.

4-guruhgaga topshiriq: Individual ong, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiyaning mazmunini tushuntirib bering.

5-guruhgaga topshiriq: "Mafkura" tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.

Har bir guruh o'ziga berilgan topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng, ularning har biri o'z javoblarini butun auditoriyaga havola qilishadi. Bunda topshiriqni aniq va to'g'ri yechgan, faollik ko'rsatgan guruhni va alohida faol o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Bu metodni qo'llash davomida o'quvchilardan barcha materiallar yig'ib olinadi, aksincha o'quvchilar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o'qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga quloq solmaydilar. o'quvchilardan ehtiyyot bo'lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimlash, sinfni ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

"Debatlar". Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiylar maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'rilingiga ishontirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi.

Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o'quvchilarga sharoit tug'diriladi. Buning uchun esa mavzuni *rezolyutsiya* shaklida ifodalash kerak bo'ladi. Ma'lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o'zgartirishni talab etadi. Misol uchun, “qabul qilingan: AQSH Oliy sudi oliy jazoning nokonstitutsiyaviyliligini tan oldi”.

Mashg'ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli o'quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo'llab – quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarni o'tkazish qoidasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi - yordamchini tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” (3 – 5 ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o'quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko'lamenti anglash va bahsda o'z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy argumentlar tayyorlashda o'qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birgalikda o'quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko'rishlari lozim.

Bahslashuv natijasida o'quvchilar nimalarni qo'lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to'g'risida gapirish mumkin.

O'quvchilarni shunday dalil – isbot topish ko'nikmalarini egallahga o'rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o'rin qolmasin. Shundagina o'quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o'rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi.

1. O'quvchining o'z fikrini erkin ifodalashi.

O'quvchiga yechimini topish uchun taklif etilgan muammo bo'yicha o'z o'rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Misol uchun, Toshkentda 16 fevral voqealari nima uchun sodir bo'lganligi to'g'risida. Muammoga o'quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen nimalarni o'ylaysan? va boshqa.

2. O'z fikrini oydinlashtirish.

O'quvchilarning bildirgan fikrlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ularga qo'shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O'z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

3. O'quvchilarning fikrlarini asoslanganligini tekshirish.

Bu yerda quyidagicha savollarning berilishi o'rinnlidir: Nima uchun sen aynan shunday deb o'ylaysan? Sening mavqeingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday taassurot tug'ildi? qanday argumentlarni bildirgan fikring foydasiga keltirasan? Sening fikringni nima isbotlaydi? va hokazo.

4. Boshqalar fikrini o'rganish.

Inson o'z fikrining ojizligini har doim ham tan olavermaydi va suhbatdoshining fikriga hurmat va ehtirom bilan qaravermaydi. Ayniqsa bu holatni ko'proq o'smirlarda kuzatish mumkin. Shubhasiz, ko'p hollarda buning aksini ham ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda qator murakkab muammolarning yechimini topishda o'zgalar fikrini eshitish va tinglash ko'nikmasi juda asqotadi. Bu ko'nikmani o'quvchilarda shakllantirishni xohlasangiz, marhamat, quyidagi savollar bilan murojaat qiling: o'z fikringizga muqobil bo'lган holatni bayon qila olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deyishi mumkin? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5. O'z holatini va o'zgalar fikrini tahlil etish.

Bu haqda nafaqat o'smirlar, balki kattalar ham ko'pincha o'ylashmaydilar, o'quvchi xususiy fikri bilan to'g'ri kelmaydigan fikrlarni ham o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama – qarshiligini tahlil etishi kerak. Shu maqsad uchun quyidagi savollar asqotishi

mumkin: o’z fikring ojizligi nimada? qarshi tomonning dalil – isboti nima uchun kuchli yoki nima uchun kuchsiz? qanday fikrlar sizning mavqeingizni mustahkamlaydi yoki uni kuchsizlantiradi?

O’rganilayotgan muammo bo’yicha har ikkala fikrlarning mantiqiy oqibatlarini o’rganish uchun savollar: agar sizning g’oyangiz qabul qilinsa, nimalar ro’y berishi mumkin? Bu jamiyatga qanday ta’sir ko’rsatadi? Uning natijasi keljakka foyda beradimi?

6. Muammo bo’yicha yechim qabul qilish.

Bu “tanqidiy fikrlash” metodining so’ngi bosqichi hisoblanib, o’quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo’ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo’ygan bo’lardingiz? va hokazo.

“FSI”

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o’quvchilarning o’z shaxsiy fikrlarini asoslab berishlari, ya’ni “FSI” texnologiyasi taklif qilinadi. Buning uchun har bir guruhgaga uchtadan qog’oz varaqlari beriladi. Ularning birining o’ng yoki chap burchagiga F, ikkinchisiga S, uchinchisiga I harflari yozilgan bo’ladi. Bunda:

F - o’z *fikringni* bayon qil;

S - nima uchun shunday fikrda ekanligingga biron – bir *sabab* keltir;

I - misol bilan keltirilgan sababni *izohla* degan ma’noni bildiradi.

Masalan:

F FIKR	Har bir kishi o’z hatti – harakati uchun shaxsan javobgardir.
S SABAB	Bu fikrni shuning uchun keltirdimki, men bir kishi qilgan ish uchun bir necha kishini jazolanganiga guvoh bo’lganman (Misollar yoki vaziyat tushuntirib berilishi mumkin).
I IZOH	Javobgar kishi jazolansaadolat g’alaba qiladi.

II BOB. “Jahon tarixi” darslarida o’quvchilarning o’zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash.

II.I. O’quvchilarning uygaga berilgan topshiriqlarni bajarishga qo’yilgan talablar.

O’quvchilarning uyda dars tayyorlashi – o’quv jarayonining muhim qismidir. Bu ishdan ko’zlangan asosiy maqsad: darsda o’tilgan materialni puxtarloq esda qoldirish, uning chuqurroq anglab olinishiga erishish, o’quvchilarning darslarda mustaqil ish bajarib hosil qilgan turli xil malaka va ko’nikmalarini yanada o’stirishdir.

O’quvchilarning uyda dars tayyorlashini yo’lga qo’yishda jiddiy kamchiliklar uchraydi. Hozirgacha ham ba’zi o’qituvchilar yangi materialni o’zlashtirishning asosiy og’irligini o’quvchilarning uyda bajaradigan topshiriqlariga yuklaydilar, dars vaqtining ko’p qismini esa uygaga berilgan topshiriqning qanday bajarilganini tekshirishga sarf qiladilar, bu esa o’quvchi uchun zaralidir.

Ba’zan o’quvchilarga ularning vaqtini ko’p oladigan haddan tashqari murakkab topshiriqlar beriladi. Ko’pincha, bir xildagi uy topshiriqlarini berish: topshiriqlarni darslikning navbatdagi paragrafini har qachongiday o’qib kelishdan iborat qilib qo’yish hollari uchraydi. Bunday ahvol o’quvchilarning tarixdan beriladigan uy topshiriqlariga va umuman tarix faniga qiziqishlarini pasaytiradi. Ba’zida metodik adabiyotlarda tarixdan uy topshiriqlari bermaslikka da’vat qilinar edi, bunday qilish ham noto’g’ri va zararlidir, **chunki o’quvchilarga tarixdan uy topshiriqlari bermaslik o’quv jarayonining o’z mohiyatiga, uning ta’lim – tarbiyaviy vazifalariga zid bo’ladi.** Bu vazifalarning amalga oshirilishi uchun o’quvchining sinfda ham, yakka o’zi o’tirib darslikdan foydalanishi lozim bo’lgan uyda ham muntazam ravishda

mustaqil ishlashi zarur¹⁶. O'quvchi darsini o'rtoqlari va o'qituvchining yordamisiz o'zi tayyorlashi va ba'zan yo darsda ko'rib chiqilmagan, yoki u kasal bo'lib qatnasholmay qolgan darsda o'tilgan yangi o'quv materialini mustaqil ravishda o'qib tushunib olishi kerak. Demak, o'quvchilarga uy topshiriqlari bajarishdan voz kechish kerak emas, balki uy topshiriqlarini me'yori bilan berish, katta va murakkab topshiriqlar bilan ularning tinkasini quritmaslik, o'quvchilarning uyda dars tayyorlashini mohirlik bilan to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

An'anaviy ta'limda odatda uy topshiriqlari o'quv materiali o'rganilib va mustahkamlanib bo'lgandan keyin beriladi. Ammo uy topshirig'ini yangi materialni o'rganishdan oldin ham bersa bo'ladi. Bu hol o'quvchilarning darsda diqqat – e'tiborini kuchaytiradi va uy topshirig'ini bajarishlarini osonlashtiradi.

VI – VII sinflarda “Jahon tarixi” dan uyga beriladigan topshiriqlar anchagina xilma – xildir.

1. O'quvchilarning darslikdagi o'tilgan paragraf mazmunini gapirib berishga tayyorlanishlari. Topshiriqning bu turi VI – VII sinflarda asosiy topshiriq hisoblanadi, chunki bu sinflarda o'quvchilarning tarixiy materialni tegishli dalil – isbotlar bilan bir boshdan silliq va ravon gapirib berish malakasi hali birmuncha bo'sh bo'ladi. Darslik mavzusi yuzasidan reja tuzish materialni bir boshdan silliq va ravon gapirib berishga yordam beradi.

2. Dars yoki butun mavzuning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish. O'quvchilarning uyda tayyorlanishlari uchun darslikdagi savollar orasidan: sinfda tahlil qilib chiqilgan, uyda yanada chuqurroq o'ylab javob qaytarish lozim bo'lgan eng murakkab savollarni, shuningdek, darsda o'rtaga qo'yilmagan bo'lsa ham, lekin o'quvchilar mustaqil ravishda javob qaytara oladigan savollarni tanlab olish kerak. Bundan tashqari, o'qituvchining o'zi qo'shimcha savollar tuzadi.

3. Ko'rsatmali o'quv qurollari bilan ishlash uchun beriladigan topshiriqlar. Bunday topshiriqlar jumlasiga quyidagilar kiradi: a) darslik

¹⁶ “Xalq ta'limi” jurnali. 2005 yil 4 – son.

mavzusidan foydalangan holda, bitta yoki bir necha rasmning mazmunini og'zaki gapirib berish; b) rasmning syujetini tashkil etgan dalillarni tushuntirib berish; v) shu dars mazmuniga doir rasmni ilgari o'tilgan dars mazmuniga doir rasmlarga taqqoslab, tegishli xulosalar chiqarish (masalan, feudal qasrini zodagon frankining qo'rg'ono bilan taqqoslash va nima uchun IX – X asrlarda katta yer egalariga VI – VII asrlardagiga qaraganda kuchliroq istehkomlar kerak bo'lganini tushuntirib berish); g) darslikdagi murakkab bo'lмаган konturlar, jadvallar yoki rasmlarni: ibridoiy odamlar foydalangan mehnat quollarining sxematik tasvirini, turli davrlardagi jangchilarining qurol – aslahalarini, qishloq xo'jaligining eng oddiy asboblarini, piramidani, o'rta asr qasridagi bosh minorani, janglar sxemasi bilan jangovar tartib sxemasini va hokazolarni daftarga suratini chizish; d) darslikdagi kartografik material ustida sinfda boshlangan ishni davom ettirish (masalan, savdo yo'llarini, qay tomonga harbiy yurish qilinganini, qo'zg'olonlar bo'lgan joylarni, davlatlar chegarasidagi o'zgarishlarni xaritadan kuzatish), kontur xaritadan berilgan topshiriqni bajarish; e) o'rganiladigan material mazmuni yuzasidan xronologik, sinxronistik yoki mavzuga oid jadval tuzish, darsda tuzila boshlangan jadvalning chala qolgan joylarini uyda to'ldirib tugallash.

4. Darslik materialini mustaqil o'rganish uchun beriladigan topshiriqlar. Ayrim vaqtarda VI – VII sinf o'quvchilariga dastlab sinfda muhokama qilinmagan biror masalani darslikdan o'qib va undagi tegishli rasm va xaritadan foydalanib mustaqil ravishda o'rganish vazifasi beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda darslikdan mustaqil foydalanish malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun zarurdir. Biroq mustaqil o'rganish uchun beriladigan materialning hajmi katta bo'lmasligi va mazmuni o'qituvchining izohlarisiz tushunarli bo'lishi kerak.

Ba'zan uy topshiriqlarini ayrim o'quvchilarining bilim, malaka, ko'nikmalariga qarab differensiyalshtirib berish juda muhimdir. Masalan, o'qituvchi o'rganilayotgan voqealar sodir bo'lgan joyni tarix xaritasidan topishga qiynalayotgan o'quvchilarga kontur xaritada bajariladigan maxsus

topshiriqlar berishi, reja, sxema, va diagrammalar tuzishga qiynaladigan yoki, aksincha, bunday ishga ko'proq qiziqadigan o'quvchiga esa reja, sxema, va diagrammalar tuzish yuzasidan qo'shimcha mashqlar berishi mumkin. Tarixga juda ham qiziqadigan o'quvchilarga sinfda ishlatalish uchun ko'rsatmali o'quv quroli (maket, sxema, jadval) yasash, o'qish kitobi, Bolalar ensiklopediyasi, badiiy – tarixiy asarlardan foydalangan holda, o'zlarini qiziqtitgan ayrim masala haqida qisqaroq og'zaki axborot tayyorlash kabi kichikroq topshiriqlar berish mumkin.

O'qituvchining uyga berilgan topshiriqlar qanday bajarilganini har kuni tekshirib borishi – o'quvchilarning uyda muvaffaqiyat bilan muntazam dars tayyorlashlarining zarur shartidir.

II.II. O’rganilgan materialni takrorlash va umumlashtirish.

O’rganilgan materialni takrorlash, uni umumlashtirish va tizimga solish o’quv jarayonining eng muhim elementlaridan biridir. Tarixiy materialni takrorlash dalillar, xulosalar va ta’riflarni oddiygina eslatib o’tishdan iborat bo’lib qolmasligi uchun, yangi o’rganiladigan dalillarni umumlashtirish, tizimga solish va ularni mavzu, bo’lim, kurs yuzasidan hosil qilingan bilimlar tizimiga kiritishning maxsus usullarini qo’llash zarur.

O’tilgan material o’quv jarayonining hamma qismlarida takrorlanadi va umumlashtiriladi. O’quvchilar bilimi ularning uyga vazifa qilib berilgan yoki ilgari o’rganilgan materialni takrorlashlari va umumlashtirishlari vaqtida tekshiriladi. Yangi materialni o’rganishga kirishish – ilgari o’tilgan va yangi materialni yaxshiroq o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan materialdagi dalillarni takrorlash va umumlashtirishdan iboratdir. Materialni xotirada mustahkamlashda ham, uy topshirig’ida ham takrorlash va umumlashtirish elementlari bor.

Takrorlashning quyidagi turlarini ko’rsatib o’tish mungkin: kirish darsidagi takrorlash, dars mazmuniga mavzu jihatdan bog’langan kundalik takrorlash, o’rganiladigan kursning ayrim mavzulari, bo’limlari va muammolariga doir umumlashtiruvchi takrorlash butun kurs materialini umumlashtiruvchi yakuniy takrorlash.

Takrorlashning ana shu turlarini qadimgi dunyo va o’rta asrlar tarixi kurslariga tatbiq etgan holda birma – bir ko’rib chiqamiz.

Kirish darsidagi takrorlash. O’quv yili boshida yoki yangi mavzusini o’rganish oldidan kirish darsi takrorlashi (umumlshtirish elementlari bilan birga) o’tkaziladi. Kirish darsidagi takrorlashdan maqsad – ilgari o’zlashtirilgan va yangi o’quv materialini yaxshiroq tushunib olish uchun zarur bo’lgan bilimlarni o’quvchilarning esiga tushirishdir.

Masalan, VI sinfda o’tiladigan birinchi darsda o’quvchilar V sinfda Vatanimizning eng qadimgi davrlardan to mustaqillik yillarigacha va mustaqillik yillari tarixi bilan tanishganlarini eslaydilar. Vatanimiz tarixiga doir hikoyalarni

kirish darsida qisqacha eslatish oltinchi sinf o'quvchilarining VI sinfda o'rganiladigan yangi kurs – “Tarix” (qadimgi dunyo tarixi) kursi jahon tarixinining, ya'ni butun dunyo xalqlari tarixinining birinchi bo'limi ekanligini va V sinfda tanishib chiqishgan mamlakatimiz xalqlari tarixi ham jahon tarixinining bir qismi ekanligini anglab olishlariga yordam beradi.

VII sinflarda “Jahon tarixi”ga kirish darsida qadimgi dunyo tarixi kursining asosiy mazmunini umumlashtiradigan va o'rta asrlar tarixi kursini qadimgi dunyo tarixi kursi bilan bog'lashga yordam beradigan suhbat o'tkazish ma'quldir. Suhbat taxminan quyidagi savollar asosida borishi mumkin: **Eng qadimgi davrlarda barcha xalqlarda qanday ijtimoiy tuzum bo'lgan? Qadimgi Sharq, Gretsiya, Rimdag'i ko'pchilik xalqlarda bu tuzumning o'rnini qaysi tuzum olgan? Nima uchun quzdorlik tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumiga nisbatan olg'a qarab qo'yilgan bir qadam edi? Quldorlik tuzumining inqirozga yuz tutishi va yemirilishining sabablari nimada? G'arbiy Yevropadagi qaysi voqeа qadimgi dunyo tarixinining tugashi bilan hisoblanadi?**¹⁷

VII sinf “Jahon tarixi” kursining birinchi mavzusini o'rganish oldidan o'qituvchi: eramizning dastlabki asrlarida germanlar qayerlarda yashaganlar? Ular nima bilan shug'ullanganlar? Germanlarda qanday ijtimoiy tuzum bo'lgan? singari savollarni o'rta ga qo'yib, o'quvchilarning qadimgi germanlar hayoti haqida VI sinfda bilgan narsalarini esga olishlariga yordam beradi. Buning natijasida o'quvchilar germanlar hayotida va G'arbiy Yevropa tarixida sodir bo'lgan keyingi o'zgarishlarni chuqurroq anglab oladilar.

Ilgari o'tilgan materialni kirish darsida takrorlash deyarli har bir yangi mavzuni o'rganishga o'tish oldidan zarurdir.

VII sinfda hunarmanchilik va savdo – sotiqning rivojlanishi, G'arbiy Yevropada shaharlarning o'sishi haqidagi mavzuni o'rganishga kirishilayotganda o'qituvchi darslikdagi tavsiyalarga muvofiq ilk o'rta asrlardagi xo'jalik haqidagi materialni qisqacha takrorlashni uyushtiradi.

¹⁷T. Toshpo'latov, Ya. G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. T. 2002 yil, 61 – bet.

X – XI asrlardagi xo’jalikning yutuqlarini uning avvalgi asrlardagi ahvoli bilan taqqoslash o’quvchilarning xo’jalik taraqqiyoti jarayonini ravshanroq tasavvur etishlariga yordam beradi, hunarmanchilik nima uchun va qanday qilib asta – sekin qishloq xo’jaligidan ajrala boshlaganini, nima uchun X – XI asrlarda Ga’rbiy Yevropada shaharlar vujudga kelib, o’sa borganini tushunib olishni osonlashtiradi¹⁸.

Kundalik takrorlash

Takrorlashning asosiy turi – ilgari o’tilgan materialni har qaysi yangi darsning mazmuniga mavzu jihatdan bog’lan kumdalik takrorlashdir. Kindalik takrorlashni darsliklardagi ko’pgina paragraflardan oldin berilgan savollar bilangina cheklab qo’yish noto’g’ri bo’lur edi. Yuqorida aytilganidek, butun dars, o’qitish jarayonining hamma qismlari materialni takrorlashga ham xizmat qilishi zarur.

Buni biz “Salib yurishlari” mavzusini (VII sinf) o’tiladigan dars misolida ko’rib chiqamiz.

Dars boshida, yangi mavzuni o’rganishga kirishilayotganda, o’quvchilarga qadimgi dunyo tarixi kursidan ma’lum bo’lgan va o’tgan darsda uyda takrorlab kelish uchun topshiriq qilib berilgan quyidagi savollar asosida takrorlash suhbati o’tkazish mumkin:

1. Qanday omillar Rim cherkovining cheklanmagan hokimiyatga ega bo’lib olishiga sabab bo’lgan?
2. Qanday sabalarga ko’ra xristian dini ikkiga bo’linib ketdi?
3. Xristian ta’limotining qaysi asosiy masalasida Rim va Konstantinopol cherkovlari kelisha olmagan?
4. Cherkovdan chetlatish nima edi?
5. Cherkov daromadining manbalarini qayd eting.
6. Yeretiklar kimlar edi va ular nimalarga qarshi kurashganlar?
7. Yeretiklarga qarshi kurashda qanday usullar qo’llanilgan?

¹⁸ A.Sa’diyev. O’zbekiston xalaqlari tarixini o’qitish . T.”O’qituvchi”. 1993. 61 – bet.

Ana shu savollar asosida takrorlash o'quvchilarning xristian dini, uning sinfiy mohiyati, cherkovlar faoliyatini esga olishlariga va xotirada mustahkamlashlariga yordam beradi, ularni "Salib yurishlari" mavzusidagi yangi o'rganiladigan dalillarni bundan keyin umumlashtirib borishga yo'llaydi.

Yangi materialni o'rganayotganda ilgari o'tilgan materialdagi muhim dalillar takrorlanadi. O'qituvchi navbatdagi dars yuzasidan beradigan uy topshirig'ida o'quvchilarga xrisianlarning olimlarni ta'qib qilganliklari va san'at yodgorliklarini vayron etganliklari to'g'risida VI sinf "Tarix" kursidan ma'lum bo'lgan voqealarni esga olishni ta'kidlab qo'yadi.

Umumlashtiruvchi

takrorlash

Umumlashtiruvchi takrorlash kursning burun bir mavzusi yoki bo'limidagi materialni o'z ichiga oladi, ba'zi hollarda esa, har xil mavzu va bo'limlardan olingan, jamiyat hayotining muayyan muammolari, muayyan tomonlariga doir materialni tizimga soladi. Bunday takrorlash bir turdag'i voqe'a va hodisalarning umumiyligi xususiyatlarini va farqlarini aniqlab olishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarning maktabda tarixdan o'tiladigan butun bir kurs yoki bir necha kurs davomida hosil qilib boriladigan eng muhim tushunchalarni o'zlashtirib olishlari uchun juda muhimdir. Yakuniy takrorlashning maqasdi – butun kursning asosiy mazmunini umumlashtirishdir. Bu umumlashtirish vaqtida o'qituvchi o'quvchilarning o'quv yili oxirigacha hosil qilgan bilim va malakalariga tayanadi. Umumlashtiruvchi takrorlash vaqtida o'quvchilarda butun kursga doir eng muhim tarixiy tushunchalarning shakllanishi nihoyasiga yetadi. Quldarlik tuzumi haqidagi tushunchalar tizimini ma'lum darajada yaxlit bir tizim tusiga kiritish uchun – ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va qulchilikning vujudga kelishidan to Rim quldarlik imperiyasining halokatigacha o'tgan davr ichidagi asosiy dalillarni o'quvchilarning esiga tushirish va umumlashtirish zarur.

Butun dars yuzasidan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi yakuniy takrorlash bir turdag'i tarixiy hodisalarni umumiyligi tushuncha ostiga kiritish vositasi bo'lib

xizmat qiladi. Masalan, o'rta asrlar kursini yakunlash darsida o'quvchilar feodalizmning rivojlanishidagi uch davrdan har birining xarakterli xususiyatlarini takrorlash asosida o'qituvchi yordami bilan "feodal tuzum" degan umumiyl tushunchaga feodalizmning asosiy belgilari to'g'risidagi o'zlariga ma'lum tushunchalarnigina emas, balki feodalizmning yemirila borishi, yani feodal Yevropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlarning vujudga kela boshlashi, sinfiy kurashning keskinlashuvi, o'rta asrlarning so'nggi davrida absolyut monarxiyaning o'rnatilishi haqidagi tushunchani ham kiritadilar. Umumlashtiruvchi yakuniy takrorlash vaqtida o'quvchilarga bir turdag'i tarixiy hodisalarini va tarixiy dalillar o'rtasidagi bir xil sabab – natijali va qonuniyatli bog'lanishlarni taqqoslash yo'li bilan tarixiy taraqqiyotning ba'zi bir umumiyl qonuniyatlarini anglatiladi. Masalan, o'rta asrlardagi sinfiy kurash muammolariga bag'ishlangan maxsus yakuniy darsda dehqonlar tomonidan feodallarga qarshi olib borilgan qo'zg'olinlar va urushlarning umumiyl sabablari, xususiyatlari va oqibatlarini takrorlash va taqqoslash natijasida, o'quvchilarga bu qo'zg'olon va urushlarning umumiyl qonuniyatlarini anglatiladi va ular, feodal jamiyatda sinfiy kurash muqarrar suratda sodir bo'ladi, degan xulosaga olib kelinadi.

II.III. O'quvchilar bilimini tekshirish va hisobga olish.

O'quvchilar bilimini tekshirish va hisobga olish tarix o'qitish metodikasining eng murakkab masalalaridan bo'lib, metodik adabiyotlarda bir nech bor muhokama qilingan. Metodistlarning va ilg'or o'qituvchilarning tajribalari o'quvchilar bilimini tekshirishning vazifalari xil ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi.

Birinchidan, bilimlarni tekshirish jarayonida o'quvchilarning dars vaqtidagi va darsga tayyorlanish chog'idagi o'quv faoliyati muntazam nazorat qilib borilishi, bu borada erishilgan natijalar hisobga olinishi va ularga baho berilishi bilan birga, o'quvchilarning bilim va malakalari yanada takomillashtiriladi, bu bilim va malakalar ularga yanada chuqurroq anglatiladi va xotiralarida mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning bilim va malakalarini bir tizimda tekshirish va bu tekshirish jarayonida ta'lif berib borish ularning fikrlash qobiliyatini, og'zaki va yozma nutqini hamda tarixiy materialdan foydalanishdagi turli xil malaka va ko'nikmalarini yanada o'stirishga yordam beradi.

Uchinchidan, bilimlarni tizimli ravishda tekshirish va hisobga olish o'quvchilarni chidam va toqat talab qiladigan kundalik ishga rag'batlantiriladi, ularda mehnatsevarlik, sabot – matonat, iroda sifatlarini tarkib toptiradi va bu bilan ularga katta tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, o'quvchilar bilimini tekshirish jarayonida o'qituvchining o'zini – o'zi tekshirishi sodir bo'ladi (o'qituvchi o'z ishlarining natijasini tekshirib ko'radi, bu ishlardagi ijobjiy tomonlarni va kamchiliklarni aniqlaydi).

O'qitish natijalarini tekshirish faqat uyga berilgan topshiriqlarning qanday bajarilganini tekshirib qo'l qo'ya qolishdangina iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning dars vaqtidagi o'quv faoliyatlarini: darsda qanchalik diqqat – e'tibor bilan o'tirishlarini, faolliklarini, halollik bilan ishlashlarini, mashqlarni qanchalik to'g'ri bajarganliklarini ham tekshirishdan iborat bo'lsa, uning ahamiyati ko'p marta oshadi.

Tekshirilishi zarur bo'lgan narsa, avvalo, o'quvchilarning o'qish davomida hosil qilgan bilim, malaka va ko'nikmalaridir. O'quvchilarning qancha tarixiy materialni o'zlashtirganligini tekshirish bilan birga, ularning bilimlarni nechog'lik puxta, ongli va amaliy ravishda egallaganligini, ya'ni bilishga undaydigan turli xil vazifalar va boshqa amaliy vazifalarni bajarishda o'quvchilarning shu bilimlarni tatbiq eta bilish qobiliyatini ham tekshirish lozim.

Umumlashtiruvchi xulosa o'quvchining esida bormi – yo'qligini tekshirish kifoya qilmaydi, uning bu xulosani asoslab va isbotlab bera olish – olmasligini aniqlab olish zarur. O'quvchining xronologik sanalarni esdan chiqargan – chiqarmaganini tekshirish bilan birga, uning qaysi voqealar avval, qaysilari keyin va necha yil keyin sodir bo'lganini shu sanalarga qarab aytib bera olish – olmasligini, VI sinf o'quvchilarining eramizdan avvalgi yil hisobini va bizning eramiz yil hisobini qanchalik bilishni, yilni asrga va ming yillikka qo'sha olish – olmasligini ham tekshirish kerak¹⁹.

O'qituvchi o'z talablari o'quvchilar tomonidan qanday bajarilayotganini muntazam tekshirib borsagina, bu talablar amaliy natija beradi. O'qituvchi tarix darsliklaridagi savollarga javob berishni talab qilgan taqdirdagina, o'quvchilar bu savollarni jiddiy o'ylab ko'radir; agar o'qituvchi o'quvchilardan ayrim savollarga javob berish bilan birga, materialni batapsil bayonh qilishni talab etsagina, ular topshiriq tarzida berilgan materialni bir boshdan, ravon hikoya qilib beradilar.

Bilimlarni tekshirish faqat o'qituvchiga emas, balki o'quvchilarning o'zlariga ham o'quv jarayonida o'zlarida sodir bo'layotgan o'sishni, o'z o'quv vazifalarini halollik bilan, to'g'ri bajarayotganliklarini ko'rish va unga baho berish imkoniyatini beradi. Agar o'qituvchi o'quvchining o'qishda erishayotgan yutuqlarini: savollarga avvalgidan ko'ra yaxshiroq javob berayotgani, xaritani tuzuk o'rganib olgani, nutqi yanada ravonlashgani, o'qishga ilgaridan ko'ra jiddiyroq kirishayotgani va hokazolarni aytib o'tsa, bilimlarni tekshirishning ahamiyati ayniqsa oshadi.

¹⁹ "Xalq ta'limi" jurnali. 2004. 4 – son, 45 – bet.

O'quvchilarning tarixdan olgan bilim va malakalrini tekshirishning ahamiyati qancha katta bo'lsa, tarix o'qitishning tarbiyaviy natijalarini tekshirish ham o'shancha katta ahamiyatga egadir. Tarix o'qitishning tarbiyaviy natijalarini tekshirishdagi asosiy vazifa – o'quvchilarning tarixdan olgan bilimlari qanday qilib va qay darajada ularning ishonch – e'tiqodlariga aylanayotganini, his – tuyg'ularini qanday tarbiyalayotganini va ularda materialistik dunyoqarash hamda shaxsda milliy istiqlol g'oyasi fazilatlarining shakllanib borishiga qanday yordam berayotganini aniqlashdan iboratdir. VI – VII sinf o'quvchilari tarix darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda duch keladigan ijtimoiy hodisalarga o'z munosabatlarini odatda zo'r ishtiyoq bilan bevosita bayon qiladilar.

O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy hodisalarga ma'naviy jihatdan baho berishga, tarixiy shaxslarning hatti – harakatlarini ma'qullab yoki qoralab fikr bildirishga rag'batlantirishi kerak. Bunday mavzudagi suhbatlar o'quvchilarning bilimlarni yaxshiroq anglab, xotirada yaxshiroq saqlab qolishlari uchun, o'z fikrlarini ifodalash va isbot qilib berish malakalarini hosil qilishlari uchun va bolalarni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun katta ahamiyatga egadir. Lekin tarix o'qitishning tarbiyaviy jihatlarini darsda tekshirish bilan cheklanib qolish yaramaydi. O'quvchilarning ijtimoiy hayot hodisalariga doir qiziqishlari, talablari, ko'pincha esa his – tuyg'ulari va qarashlari tarix to'garagida, ekskursiyada, o'qilgan tarixiy kitoblar haqidagi suhbatda ayniqsa to'la namoyon bo'lishi mumkin.

Tarix o'qitish natijalarini va o'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish tarix fanini o'qitishning butun jarayonini tekshirish, baho berish va takomillashtirishning kalitidir.

VI – VII sinf o'quvchilarining bilimlarini tekshirish ishining mazmunida va tashkil qilinishida jiddiy kamchiliklar uchraydi. Bularni quyidagicha izohlash mumkin:

- 1.** Bilimlarni tekshirish, ko'pinch, o'quvchilarga darslik matnini aynan gapirib berishni taklif qilish yoki qisqa – qisqa javoblar qaytarishni talab etuvchi savollar berish bilan cheklab qo'yiladi.
- 2.** Doska yoki xarita oldiga chiqarilgan o'quvchilar bilan bo'ladigan ish sinfdagi boshqa bolalarning faol ishtirokisiz o'tadi: o'quvchilar doska yoki xarita oldida turgan o'rtoqlarining javoblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritmaydilar.
- 3.** O'qituvchi o'quvchilarning javoblariga tanqidiy baho bermaydi.
- 4.** Bilimlarni tekshirishda o'quvchilarning qobiliyatiga qarab alohida – alohida yondoshish tamoyiliga amal qilinmaydi.
- 5.** Tekshirish ba'zan faqat o'tgan darsning mazmuniga oid bo'ladi va ilgari o'tilgan materialni takrorlashga bog'lab olib borilmaydi.
- 6.** Material mazmunini mustaqil tushunib olishga, o'quvchilar bilimini tekshirishga, o'quvchilarning o'z – o'zini tekshirishiga va ularning malakalarini o'stirishga mo'ljallanib, darslikning har qaysi paragrafi uchun berilgan topshiriq va savollardan kam foydalaniladi.
- 7.** O'quvchilarga beriladigan qo'shimcha savollar ba'zan darsning asosiy mazmuni bilan bog'lanmagan bo'ladi va xronologik sanalarga va tarix xaritasiga oid bilimlarni yuzaki tekshirish uchungina xizmat qiladi, holbuki, qo'shimcha savollar materialni kundalik takrorlash vazifalariga xizmat qilishi mumkin va lozimdir.
- 8.** Ba'zi o'qituvchilar chorak davomida har qaysi o'quvchidan faqat bir – ikki maratagina so'raydilar, xolos.
- 9.** O'qituvchilar o'quvchilar bilimini tekshirishga ba'zan dars soatining yarmidan ko'prog'ini sarf qiladilar; bu hol yangi materialni o'rganishga jiddiy zarar yetkazadi, chunki uni o'zlashtirish (vaqt kam qolgani sababli), asosan o'quvchilarning uyda bajaradigan topshiriqlariga jamlanadi.

Tarix kursini tizimli suratda o'rganish endigina boshlanayotgan va tarixiy bilimlar tiziminining hamda mustaqil ishlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarning dastlabki poydevori qurilayotgan VI – VII sinflarda bu kamchiliklarning bo'lishi ayniqsa yaramaydi.

Keyingi yillarda o'quvchilar bilimini tekshirish ancha takomillashib borayotgani o'qituvchilarning ish tajribasidan ko'rinoqda: ko'p o'qituvchilar o'quvchilarning tarixiy hodisalar o'rtasidagi muhim bog'lanishlar va munosabatlarni qanday anglab olayotganliklariga ko'proq e'tibor bera boshladilar; o'quvchilarning tarixiy materialdan mustaqil foydalanish malakalari va ko'nikmalarini qanchalik egallayotganliklarini tekshirish kuchaydi; bilimlarni tekshirish vaqtida barcha o'quvchilarni bu ishga faol qatnashtirish vazifasi muvaffaqiyatliroq amalga oshirilmoqda, bu narsa bilimlarni tekshirishning ta'limiy va tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirishga olib bormoqda; o'quvchilarni doska yoki xarita oldiga chiqarib so'zlatish va ularning yozma hamda chizma ishlarini tekshirish avvalgiga qaraganda ancha ko'paydi; o'quvchilar bilimini tekshiriash va hisobga olish formalaridan eng asosiysi hozirgi kunda reyting tizimidir. Reyting tizimi asosida o'quvchilarning har bir darsda bilimi tekshirilib, nazorat qilinib boriladi va ball tizimida baholanadi.

VI – VII sinflarda o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish hamda hisobga olishning turli ko'rinishlaridan samarali foydalanilmoqda.

O'quvchilarni savollarga bat afsil javob berish uchun doska yoki xarita oldiga chiqarish. O'quvchilarning doska yoki xarita oldiga chiqib savollarga javob berishi ularning og'zaki nutqini o'stirishda ayniqsa katta rol o'ynaydi, o'quvchilarning darslik matnini yoki uning rasmlari mazmunini yaxshi tushuntirib batartib gapirib berishga majbur etadi.

O'quvchilarni savollarga bat afsil javob berish uchun doska yoki xarita oldiga chiqarishdan bosh tortish xato va zararlidir. Lekin bilimlarni tekshirishning bu usuli ayrim hollarda qo'llaniladigan boshqa har qanday usul singari, o'ziga xos salbiy xususiyatlarga egadir. O'quvchilarning nutq malakalari hali uncha yaxshi rivojlanmagan VI – VII sinflardagi tarix darsida o'quvchilardan materialni bat afsil so'rash vaqtini ko'p oladi.

Tajribali o'qituvchilar bat afsil so'rashdagi shu kamchiliklarni nazarda tutib, so'rashning bu formasidan foydalanayotganda sinfdagi hamma

o'quvchilarning diqqat – e'tiborini javoblarni tahlil qilish va to'ldirishga jalg etadilar.

O'quvchilarni mavzuga doir eng muhim masalalar to'g'risidagi savollarga qisqacha javob berish uchun turg'izizb so'rash. O'quvchilar savollarga doska yoki xarita oldiga chiqib batafsil javob berishdan tashqari, turgan joylaridan qisqacha javob berishlari ham mumkin. Tekshirishning bu formasi o'quvchilarni dars va mavzu mazmunidagi asosiy narsani ajratib ko'rsatishga, javoblarni qisqacha ifodalashga o'rgatadi. Bu usulda ozgina vaqt ichida anchagini o'quvchidan so'rab chiqish mumkin bo'ladi.

Ammo o'quvchilarni qisqacha javob berish uchun turg'izib so'rash VI – VII sinflarda o'quvchilar bilimini tekshirishning asosiy formasiga aylantirib yuborilsa, quyidagi kamchiliklar yuz beradi: javoblar ma'lum darajada sxematik tus oladi va umumiyl fikrlar yetarlicha aniqlashtirib berilmaydi; o'quvchilarning darslik matni ustida qunt bilan ishlashga e'tiborlari kamayadi; o'qituvchilarning o'quvchilar nutqiga nisbatan talabchanligi bo'shashib qoladi; qisqa javoblarga qo'yilgan baholar, o'quvchilarning bir necha darsda bergen hamma javoblari uchun qo'yilmagan bo'lsa, ko'pincha tasodifiy baho bo'ladi.

O'quvchilarni savollarga javob qaytarish uchun o'z joyida turg'izib so'rashning eng muhim formalaridan biri – ularni o'rtoqlarining javoblarini to'ldirish va tuzatishga jalg qilishdir. Odatda VI – VII o'quvchilari bu paytda juda faollashib ketadilar, savol berilgan oq'uvchining javobini diqqat bilan tinglaydilar va zo'r ishtiyoq bilan unga tuzatish hamda qo'shimchalar kiritadilar. Ularning bunday tuzatish va qo'shimchalari, ko'pincha, bir xil dalillarni bir oz boshqacharoq variantda takrorlash xususiyatiga egadir. Lekin savollarga berilgan javoblarni taqriz qilish qanday bo'lishi kerakligi o'qituvchi tomonidan tushuntirib borilsa va bu ishni o'quvchilar tez – tez mashq qilib tursalar, ularning savollarga qaytarilgan javoblarni taqriz qilishlari asta – sekin ancha mazmunli bo'lib boradi. O'quvchilar o'rtoqlarining javoblaridagi dalillargagina emas, balki umumlashtirishlarga ham tuzatish, aniqlik va qo'shimchalar krita boshlaydilar, materialning tartibi bilan bir boshdan bayon qilinmaganini, xulosa

chiqarilmaganini yoki u asoslab berilmaganini aytadilar. Savollarga qaytarilgan javoblardagi mayda – chuyda tafsilotlarni to’ldirishga urinish tobora kamayadi; VII sinf o’quvchilari javoblarda aytilmay qolgan narsalarga ko’proq e’tibor beradilar.

O’quvchilarning o’z o’rtoqlari javobini taqriz etishlari ularning saviyasini o’stirishda katta ahamiyatga egadir. O’rtoqlarining javoblarini tuzatish va to’ldirish ishiga iloji boricha sinfdagi hamma o’quvchilarni – faol o’quvchilarni ham, past o’zlashtiruvchi o’quvchilarni ham jalb etish lozim. Bu tuzatish va qo’shimchalarni qilgan o’quvchilarga ham tegishli baho qo’yish zarur. VI – VII sinflardagi tarix darslarida goho ba’zi o’quvchilarga “dars yuzasidan”, yani ularning shu darsda bajargan hamma ishlari yuzasidan baho qo’yishga muvaffaq bo’linadi. Bizning fikrimizcha, o’quvchilarning bir darsda bergen qisqa javoblari uchun emas, balki bir necha darsda bergen qisqa javoblarining hammasi uchun baho qo’yish maqsadga muvofiqdir. Bunday vaqtida o’qituvchi savollarga o’z joyida turib javob qaytargan o’quvchilarning to’g’ri noto’g’ri javoblarini, o’rtoqlari tomonidan bu javoblarga kiritilgan tuzatish va to’ldirishlarni maxsus daftarga yozib oladi, keyin shularni hisobga olgan holda, jurnalga umumiy bahoni qo’yadi.

Ayrim darslarda o’quvchilar bilimini ayni bir vaqtda ham og’zaki, ham yozma tarzda tekshirish. Bunda bir nech o’quvchilar batafsil yoki qisqacha og’zaki javob berayotgan vaqtida sinfdagi boshqa o’quvchilar doskaga reja, xronologik jadval, sxema, rasm, xarita – sxema va boshqa narsalar chizish bilan shug’ullanadilar. Doskada bajarilgan ishlarni tahlil qilishga butun sinf juda faol ishtiroy etadi. O’quvchilarning bilim va malakalrini tekshirishning bunday usuli eng murakkab masalalarni tahlil qilish va yaqqol ko’rsatib berishga, o’quvchilarning o’rganilayotgan tarixiy ob’yektlar, ular o’rtasidagi bog’lanish va munosabatlар to’g’risidagi ba’zi bir ko’rish tasavvurlarini hamda ko’nikmalarini tezda hosil qilishga imkon beradi.

O’quvchilar bilimini tekshirishni bunday tashkil qilishda anchagina qiyinchiliklar tug’iladi: bir – ikki o’quvchining doskada bajarayotgan ishi

sinfning e'tiborini boshqa bolalarning og'zaki javoblaridan chetga tortishi mumkin, shuning uchun o'qituvchi savol – javob vaqtida o'quvchilarning hamma ishiga mohirlik bilan rahbarlik qila bilishi kerak.

Chorak davomida taxminan 1 – 2 marta sinfdagi hamma o'quvchilarning bilimini yozma va garfik tarzda tekshirish lozim, lekin bu tekshirishning qachon bo'lishi va qay mazmunda o'tishini oldindan ularga aytmaslik zarur. O'qituvchi VI – VII sinflarda tekshirish vaqtida bajariladigan topshiriqni bajarishga odatda 15 – 20 daqiqa vaqt ajratadi. Bunday tekshirishning mazmuni, asosan dars vaqtlaridagi va uyga beriladigan vazifalarni bajarishdagi o'quv mashqlari xarakteriga mos keladi. Bunday tekshirish oddiy va kengaytirilgan reja, jadval, sxemalar tuzishdan, kontur xaritada yoki mustaqil ish uchun tutilgan daftarda berilgan topshiriqni bajarishdan, bir, ikki savolga yozma javob qaytarish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, VI – VII sinf o'quvchilarida o'z fikrlarini yozma ravishda bayon qila olish malakasi hali yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarning yozma ishlarini ulardagiligi bilimlarni va asosan malakalarini aniqlashning qo'shimcha bir vositasi deb hisoblash lozim.

O'quvchilarning uyda daftarda bajargan yozma ishlariga: mustaqil ravishda chizgan oddiy sxemalariga, darslik mavzusining rejasini tuzganliklari, jadvalni to'ldirib chiqqanliklari va boshqa ishlariga baho qo'yish ma'lum darajada ijobjiy natijalar beradi. O'qituvchi bahoni odatda o'quvchining daftarni umuman qanday tutayotganiga qarab qo'yadi.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirishning turli xil formalarini qo'llash va ularni bir – biriga qo'shib olib borish bu tekshirishdagi ayrim usullarning kamchiliklarini tugatishga yordam beradi va shu bilan tekshirishning hamma funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi, tekshirishning o'quvchilarni bilimdon qilish, salohiyatlarini o'stirish va o'zlarini tarbiyalashdagi rolini oshiradi.

* * * * *

X U L O S A .

O'quv jarayonining yuqorida ko'rib o'tilgan hamma tarkibiy qismlari bir – biri bilan chambarchas bog'liqdir. Yangi materialni o'rganishga tayyorlanishda ilgari o'tilgan material takrorlanadi va xotirada yanada mustahkamlanadi, shu bilan bir vaqtida o'quvchilarning bilimi ham taekshiriladi va umumlashtiriladi. O'quvchilar orttirgan bilim va malakalarini o'quv jarayonining hamma qismlarida albatta ishga soladilar.

O'quv jarayonining asosiy elementlari dars oldiga qo'yilgan maqsadga qarab turli xilda birga qo'shilishi darsning tuzilishi va tipini belgilaydi.

Maktabda "Jahon tarixi" va "O'zbekiston tarixi" ni o'qitish milliy ong va tafakkurni o'stirishda, ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetishtirishda katta ahamiyatga egadir. Jahonda qadim zamonlardan buyon bir necha o'nlab millat va elatlar yonma – yon yashab mehnat qilib kelgan. XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan ikki qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi.

Prezident I. Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqqiy kafolati" risolasida "**o'zbek millati azaldan o'z fikrlari, o'z istiqlolli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoiy, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini quint bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz**"²⁰ deganda ana shu holatni nazarda tutadi. Xalqimizning hamda jahon xalqlarining uzoq tarixi o'tmishida ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash olib borilganidan guvohlik beradi. "Jahon tarixi" ni o'rganish o'quvchilarga jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida millatlararo munosabatlar madaniyatining yuksak darajasi va insonparvarligi doimo ular turmush darajasi hamda jamiyat ma'naviy sofligining eng muhim ko'rsatgichi bo'lib kelganligini chuqur anglab olishlarida yordam beradi va ularni bu an'analarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalaydi. Bundan tashqari o'quvchilar nafaqat jahon xalqlari, balki o'zbek

²⁰ I. Karimov. "Tarixiy xotirasiz keljak yo'q". T. "O'zbekiston". 1998 yil. 18 – bet.

xalqining mehnatsevarligi, erksevarligi va odamiyliги, ma'rifatparvarligi, ota – onaga mehribonligi, oilaga sadoqati, bolajonligi, Vatanga, el – yurtga , tabiatga mehr – muhabbatи kabi olajanob xislatlari bilan ham tanishadilar. O'zbekiston hududdining boy tabiiy shart – sharoiti, xalqning mehnatsevarligi, o'z yurtiga mehr – muhabbat,i sadoqati bilan uyg'unlashib, tarixiy taraqqiyotni tezlashtirgan, xalq faollarining aql – zakovati, ilm – fan va madaniyat rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Osiyo bilan Yevropa o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning Mavarounnahr orqali olib borilgani ham yurtimiz tarixiy, madaniy taraqqiyotiga, xalqimiz iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiayt kasb etgan, xalqimizning, ayniqsa insonparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi olajanob an'analar mazmunana boyishiga sabab bo'lgan va o'z navbatida bu an'analar umuminsoniy qadriyatlarga muhim hissa bo'lib qo'shilgan. "Jahon tarixi" hamda "O'zbekiston tarixi" darslarida ana shu aniq ma'lumotlarni jalg qilish ta'lim – tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. O'quvcilar e'tiborini o'tmish ota – bobolarimizning ulkan madaniy va ma'naviy merosiga jalg etish, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga katta va o'lmas hissa qo'shgan Beruniy, Farg'oniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy kabi madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Jahon xalqlarining o'tmish tarixini o'rganganimizda, bizga uzoq vaqt singdirib kelingan g'oya, tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan baholash yoki noo'rin bo'rttirib ko'rsatishlardan saqlanmog'imiz zarur. Sababi qadimgi dunyo va o'rta asrlar davrida siyosiy vaziyat, mafkura doirasi o'zgacha bo'lganligi hammamizga ma'lum. Qolaversa, davr mahsuli: tarixiy shaxslar, oddiy fuqarolardan tortib qirollargacha hamma – hammalarining o'z g'oyalari, tushunchalari, maqsad va intilishlari bo'lganligi tabiiy. O'tmishdagi har bir jamiyat o'zidan avvalgisiga nisbatan ilg'orroq bo'lib, unda yashagan barcha insonlar hamisha yaxshilikka, ezgu niyatlar sari intilganlar. Tarixiy taraqqiyot

insoniyatning asrlar osha to'plangan bilimlarini, ongi, maqsadlari, talablari ko'payib borishi bilan uzviy bog'liqdir. Biz o'rta asrlar tarixini chuqr o'rganish borasida o'zimiz uchun ushbu qonuniyatlarni kashf etamiz.

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay turib kelajakni yaratib bo'lmaydi. Zero, bugunning qadru – qimmati, mohiyati va salmog'i kechagi kun tarozisi orqaligina to'liq idrok etiladi. Darhaqiqat, tarixdan kelajakka xizmat qiladigan amaliy xulosalar chiqarilmaguncha hech bir jamiyat ilgarilab rivojlanmaydi.

Fanda jahon tarixi insoniyat taraqqiyoti haqida to'la va bat afsil tasavvur, bilim hamda tishunchalar berib yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim o'rinn tutadi. Zotan, komil inson tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustivor sohasidir. Jhon xalqlarining tarixiy tajribalaridan foydalanish, ya'ni tarixda bo'lib o'tgan voqealardan, hodisalardan, turli shaxslar hayotidan, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan, yangi va farovon jamiyat qurish yo'lida insonlarni fozil, komil kishilar qilib tarbiyalashda foydalanish va hozirgi davrga xizmat qildirish eng dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

Biz insoniyatning o'tmish tarixini o'rganganimizda uni sobiq sovetlar davrida hukmron bo'lgan g'oya, ya'ni tarixni sinfiy kurashlar nuqtai nazaridan talqin etishlardan yoki noo'rin bo'rttirib ko'rsatishlardan saqlanishimiz zarur. Chunki, **“Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag – tomirigacha nazar tashlaymiz”**²¹. Binobarin, haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so'z baxsh etuvchi, kunpayakun sultanatlarni qayta yaratuvchi, o'tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko'z o'ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo'jidadir. Uning ma'naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo'lamic, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag'batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe'l – atvorlar dunyosiga oshno bo'lamic.

Tarixni insoniyat taraqqiyotining dardu quvonchlari, g'alabalaru mag'lubiyatlari, yaratuvchilik qudratiyu barbod etuvchi qora kuchlari, jasorat va

²¹ I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq", 1998 yil, 4 – bet.

xiyonat, oq va qoraning shiddatli to'qnashuvlari haqida hikoyalar bitilgan kundalik daftar deyish mumkin.

“Shubhasiz, Harqanday sivilizatsiya ko’pdan – ko’p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir. Bir so’z bilan aytganda, ko’chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy bo’lib qolaveradi, uning madaniyati abadiy yashaydi²²”. Umuman, to’g’ri anglab yetilgan, chuqur idrok etilgan tarix ulkan ma’naviy kuchga aylanib, buyuk kelajakni yaratish omili bo’ladi.

Ma’lumki, G’arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida XI – XV asrlarda keskin madaniy yuksalish bo’lganligi uqtiriladi. Biroq ko’pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo’lganligidan ko’z yumadilar. Holbuki, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz bergenligini hech kim inkor eta olmaydi. **“U Yevropadagidek yangi siyosiy – iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog’liq bo’lmagan bo’lsa – da, madaniyat tarixida so’nmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko’rsatdi”²³.**

Shu narsani yana alohida ta’kidlab o’tishimiz joizki, bugungu ta’lim sohasida bir qancha o’zgarishlar olib borilayotgan davrda “Jahon tarixi” ni oqitish va o’rganishning alohida vazifalari Davlat ta’lim standartlarida ko’rsatib berilgan. “Jahon tarixi” fani Davlat ta’lim standartlariga muvofiq insoniyat taraqqiyoti haqida to’la tasavvur berishi lozim;

“Jahon tarixi” fanini o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda o’quvchilarda ijodiy fikrlashni kuchaytirib, voqealarni ma’lum sinf va partiylar manfaatlari nuqtai nazaridan emas, balki umuminsoniy manfaatlarga mos holda xolisona holda ilmiy ravishda yoritib berilishi lozim.

²² I. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. “sharq”, 1998 yil, 21 – bet.

²³ Ma’naviyat yulduzлari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2001. 11 – bet.

“Tarixda shaxslarning roli” degan tushunchaga yangicha yondashish hamda tarixda shaxslarning buyuk rol o’ynashi mumkinligi va o’ynayotganligi tarixiy va ilmiy jihatdan asoslanishi kerak.

“Jahon tarixi” fanini o’qitishda uning davrlarini O’zbekistonning davrlari bilan birga taqqoslagan holda bog’lab yoritish hamda Jahon tarixida O’zbekiston tarixinining tutgan or’ni aniq va ravshan ifoda etilishiga erishmoq zarur. Tarixiy voqealarni bosqichma – bosqich, ya’ni izchillikka rioya qilgan holda ochish, xususan, davr va zamon ruhini berish hamda mustaqil O’zbekistonning istiqboldagi taraqqiyotini ko’zda tutgan holda bayon etilishiga erishmoq kerak. “Jahon tarixi” fanini insonparvarlashtirish masalasiga jiddiy e’tibor berish, ya’ni tarix faqat qarama – qarshi sinflar kurashidangina iborat deb insoniyatni ikkiga bo’lib, bir – biriga qarshi qo’ymasdan, balki ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida o’zaro totuvlikka, bir – birlariga yordam berishga, tinch va osoyishta yashash taraqqiyotning garovi ekanligiga ishontirish zarur.

Xullas, “Jahon tarixi” fani orqali xalqlarning tarixiy taraqqiyot rivojlanishini o’rganish yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi ruhida, baynalmilalchi, vatanparvar, mehnatsevar qilib tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. “Jahon tarixi”ni o’qitish va o’rganishning metodologik asosini umumbashariy va milliy qadriyatlar ustivorligi, tarixiylik, xolisonalik, insonparvarlik va hozirgi davrning eng ilg’or ilmiy – nazariy xulosalari tashkil etadi. “Jahon tarixi” fani materiallari kishilarda yuksak axloqiy fazilatlar: o’zligini anglash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, insof, diyonat, iymon, intizomlilik, o’z qadrini bilish, go’zallikni sevish kabi xislatlarni kamol toptirish vositasidir.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozib tugatish arafasida yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, hozirda yoshlarda mustaqillik ma’naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy – madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o’rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatları, ma’naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o’zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakatlar madaniyati

yutuqlarini o’rganish, ularga hurmat – izzatda bo’lishni, bu masalalar bo’yicha keng ta’lim, o’quv – o’qituv ishlarini olib borish talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy – madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g’urur, vatanparvarlik hissi bilan yo’g’rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo’lib yetishuvida yetakchi omil bo’lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelindi. Bunda o’quv jarayonining barcha tarkibiy qismlaridan unumli va samarali foydalanish bugungi zamonaviy tarix fani o’qituvchisining oldiga qo’yilgan asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Zero bugungi yosh avlodni tarbiyalash o’qituvchi oldidagi muhim vazifa ekan, ularni kelajakda o’z yurtining sodiq farzandi bo’lib yetishishi uchun, Prezidentimizning “... **farzandlarimiz bizlarga nisbatan kuchli bo’lsin, bizlarga nisbatan dono bo’lsin, bilimli bo’lsin va albatta bizlarga nisbatan baxtli bo’lsin!**”²⁴, degan iboralariga amal qilgan holda faoliyat ko’rsatish zamonaviy o’qituvchining eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

²⁴ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.Toshkent. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2000. 237 – bet.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 yil.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo'lida» T., «O'zbekiston». 1998 yil.
3. 97 – bet.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston» 1999 yil. 315 – bet.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq». 1998 yil. 28 – bet.
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T. 2000 yil. 245 bet.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur», 1998 yil, 2- son.
8. Azizzojayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2004. 214 bet.
9. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya . M., «Pedagogika», 1995. 233 bet.
10. Bespalko B.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii.M., 1989 g. 189 bet.
11. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. M., 1989 g. 234.
12. Lewy Itross, Bathory Z. The Toxonomy of Educational obyektiv in Continental. Evrop, Univ. of Chikago.1994.P.146-163/
13. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviuy etap evolyutsii. T., 1999, st.
14. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. Qarshi, «Nasaf», 2000 yil.
15. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Kniga 1. M., «Vlados», 2000 g.
16. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., «Moliya», 2003y.

17. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Taqnidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T. 2004.
18. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil. 89 bet.
19. Farberman B.L. Progressinie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999. 165 bet.
20. B. Farberman Ilgor pedagogik texnologiyalar FAN T., 2000. 179 bet.
21. Ziyomuxammedov B.G. Abdullayeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya. T., Abu Ali ibn Sino, 2001. 122 bet.
22. Aganov I.G. K voprosu o formirovaniye kriticheskogo obrazovaniye. 2001.№2.
23. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2002. 124 bet.
24. Podlasuy I.P. Pedagogika M.,Vlados, 2002.
25. Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshqalar. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Treninglar uchun qo'llanma. T., UMKXTRI, 2002. 167 bet.
26. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O'quv metodik qo'llanma. T., 2003. 190 bet.
27. Sh. Mo'ydinova. Q. Kenjayeva. Dars va texnologiya. “Xalq ta'limi” jurnali. 2012 y. 5 – son.
28. Yo'ldoshyev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. // «Xalq ta'limi», 1999 yil, 4-son, 4-11 betlar.
29. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. // «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
30. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.

31. Sayidahmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati. // «Xalq ta`limi», 1999 yil, 1-son, 97-102 betlar.
32. Sayidahmedov N. Ta`limda harakatlant iruvchi kuch. // «Ma`rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
33. 14. V. Kostetskiy. Tarix. 6 – sinf. O’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanma. T. “Sharq”. 2003.
34. 15. A.Sa’diyev. O’zbekiston xalqlari tarixini o’qitish. T. “O’qituvchi”. 1993.
35. 19. T.Toshpo’latov, Ya.G’afforov. Tarix o’qitish metodikasi. T. “Universitet”. 2002.
36. “Ma’rifat” gazetasi. 1995 yil 11 oktabr.
37. “Oz’bekiston ovozi” gazetasi. 1998 yil 24 oktabr.
38. “Xalq ta’limi” jurnali. 2004. 4 – son
39. “Xalq ta’limi” jurnali. 2007. 1 – son

M u n d a r i j a

Kirish

2 – 11

I BOB. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga tarixiy bilimlarni shakllantirish usullari va ahamiyati.

I.I. 6 – 7 – sinflarda o'qituvchining o'quvchilarni yangi o'quv materialini o'zlashtirishga tayyorlashi.	12 – 21
I.II. Yangi o'quv materialini o'rgatishning zamonaviy usullari.	22 – 27
I.III. Dars jarayonida o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash yo'llari va o'quvchiga yondashish bo'yicha texnologiyalar.	23 – 46

II BOB. "Jahon tarixi" darslarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirish va baholash.

II.I.O'quvchilarning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishga qo'yilgan taqlablar.	47 – 50
II.II. O'rganilgan materialni takrorlash va umumlashtirish.	51 – 55
II.III.O'quvchilar bilimini tekshirish va hisobga olish.	56 – 63
Xulosa.	64 – 69
Foydalanilgan adabiyotlar.	70 – 71